

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

**Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy
ishlarni tashkil etish metodikasi**

MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **M.A. Sobirova** – Nizomiy nomidagi TDPU, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

U.B.Nigmanova - Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar: **I.Ergashev** - O'zMU “Fuqarolik jamiyat va huquq ta'limi” kafedrasi professori, siyosiy fanlari doktori

X.Jumaniyozov - Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti, s.f.n.

Xorijiy ekspert: **p.f.dok., professor A.X.Pulotov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagি 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	12
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	29
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	81
V. KEYSALAR BANKI	92
VI. GLOSSARIY	99
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	106



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy va pedagogik kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'lifning normativ-huquqiy asoslari vaqonunchilik normalari, ilg'or ta'lif texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lif jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlarining zamonaviy dolzarb muammolari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

pedagog kadrlarning milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlari bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlanirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'lifning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning sohaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;



maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovation texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

- Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining zamonaviy nazariy qarashlari va yetakchi konsepsiyalarini;
- Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining yordamchi fan sohalari;
- Fanning moddiy va yozma manbalari;
- fanning ta'limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;
- fanning rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari;
- oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim mazmunini modernizasiyalashni;
- ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini;
- ta'limdagi innovasiyalarni bilishi kerak.
- fanlardagi innovasiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- darslarda tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;
- fanni o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**
- o'qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;
- moderator o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;
- fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart testlar hamda o'quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;



- o'quv axborotni qayta ishlash, muammoli vaziyat, Keys-stadi topshiriqlarini tuzish;
- ta'lif jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- didaktik ta'minotni takomillashtirish kabi **malakalariga ega bo'lishi lozim**.
- Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining zamonaviy yo'naliishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyalarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish;
- mashg'ulotlarda innovasion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llash;
- ta'lif jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lif shakllari, metodlari va vositalardan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;
- rivojlangan mamlakatlarda tarix fanini o'qitish metodikasidagi ilg'or tajribalarni ta'lif-tarbiya jarayoniga modernizatsiya qilgan holda qo'llash **kompetensiyalara ega bo'lishi lozim**.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'naliishi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'larning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruqlar bilan ishslash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Oliy ta'limda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari”, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish”, “Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali olib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngti yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlar.	4	2	2
2.	Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida zamonaviy texnologik uslublar	4	2	2
3.	Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligiga erishish yo'llari	4	2	2
4.	Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalari"	6	2	4

5.	Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.	6	2	4
6.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.	2	-	2
Jami		26	10	16

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlar.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud masalalar.

2-mavzu. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida zamonaviy texnologik uslublar

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarining shakllanishi, mazkur sohalar bo'yicha olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya, xalqimizning milliy urf-olatlari, an'ana va qadriyatlari, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy merosini asrash, manba xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari.

3-mavzu. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligiga erishish yo'llari.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari.

Jamiyat hayotida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratish. Yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillarini yanada rivojlantirish.

4-mavzu. Milliy g'oya targ'ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalari”.

Milliy g'oya targ'iboti va jamoa bilan aloqalarning o'zaro munosabati. Milliy g'oya targ'ibotida jamoa bilan aloqalarning demokratik asoslari. Jamoa bilan aloqalarda jahon tajribasi va targ'ibotda milliy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati. Jamoani ijtimoiy hayotda erishgan yutuqlari yoki muammolari. Jamoa bilan aloqalar texnologiyalari

5 - Mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahallaning o'rni. Ta'lim tarbiya jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalarining ahamiyati. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlar.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud masalalar.

2-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida zamonaviy texnologik uslublar

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarining shakllanishi, mazkur sohalar bo'yicha olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya, xalqimizning milliy urf-olatlari, an'ana va qadriyatlari, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy merosini asrash, manba xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari.

3-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligiga erishish yo'llari.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari. Jamiyat hayotida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratish. Yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillarini yanada rivojlantirish.

4-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya targ'ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalari”.(4.c)

Milliy g'oya targ'iboti va jamaa bilan aloqalarning o'zaro munosabati. Milliy g'oya targ'ibotida jamaa bilan aloqalarning demokratik asoslari. Jamaa bilan aloqalarda jahon tajribasi va targ'ibotda milliy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati. Jamoani ijtimoiy hayotda erishgan yutuqlari yoki muammolari. Jamaa bilan aloqalar texnologiyalari

5-amaliy mashg'ulot: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari. (4.c)

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahallaning o'rni. Ta'lim tarbiya jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalarining ahamiyati. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.

6-amaliy mashg'ulot: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. Ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lishiga sabab bo'lувchi metodlar va vositalar. Noan'anaviy ta'lim usullari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Bugungi kunda o'qitishning zamonaviy metodlari ta'lismi jarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lismi metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lismi oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lismi oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lismi beruvchi tomonidan ta'lismi oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lismi jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lismi oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta'lismi oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lismi jarayonining markazida ta'lismi oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lismi beruvchi ta'lismi oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lismi oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lismi oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lismi samarasini yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lismi oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lismi oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lismi oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




“Kichik guruhlarda ishslash” metodi

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - ta'lismi oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagisi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lismi oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishslash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishslash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishslash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqn ni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishslash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lism oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishslash» metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lism oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lism oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lism oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lism oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lism oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lism beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lism oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lism oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lism oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lism oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

Davra stoli tuzilmasi


Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lism oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lism oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lism oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lism oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lism oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lism beruvchi ta'lism oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.



3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlarini bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"BAHS-MUNOZARA" METODI - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro babs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.



Har qanday mavzu va muammolar mayjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioxaya qilish;
- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birqalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



“FSMU” metodi

“FSMU”-(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining babs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F

. fikringizni bayon etinng

S

. fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating

M

. ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring

U

. fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Tarix fanidan davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta'lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir".

1-Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

2-Topshiriq: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



"XULOSALASH" (Rezyuml, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsija etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Nvbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Tarix fanidan Davlat ta'lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

Namuna: An'anaviy va zamonaviy ta'lif shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

S	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
W	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'lifda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
O	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tug'ilishi mumkin
T	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari

	majburiyati	
--	-------------	--



“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilari orqali ifodalandaydilar. Matn bilan ishslashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



“Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalgaga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'limgan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

Madaniyat

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat

"Konseptual jadval" metodi



Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi yechimi topilishi lozim bo'lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi

Tinglovchilar mavzu va metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi

Tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi

Guruhanlarning o'zlariga berilgan topshiriqni bajaradi

Guruhanlarning yechimni guruh jamoasi hukmiga havola etadi

Guruhanlarning yechimlari guruh jamoasida muhokama qilinadi

O'rganilayotgan mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilari, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

Namuna:

Tarix darslarida interfaol ta'lif usullaridan foydalanishning jihatlari	Muhim belgilari, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			



“Tushunchalar” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”


Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Ma’naviyat		
Ma’rifat		
Mafkura		
Tarixiy xotira		
Targ‘ibot		
Ma’naviy meros		
Milliy o‘zlikni anglash		
Mafkuraviy immunitet		

Izoh: Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariya keltirilgan.

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarning yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.



6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



“T-jadval” texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra bat afsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, bиринчи ustunda “+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo'yadilar.

Izoh: O'qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Tinglovchi: - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariiga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

“T-jadval” texnologiyasi

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
+ (ha, ijobjiy) afzalligi (yutug'i)	- (yo'q, salbiy) kamchiligi

1.	1.
2.	2.
...	...

“Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”

Afzalliklari	Kamchiliklari
“Qaytar aloqa”ning ta’minlanishi motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi	ko‘p vaqt talab etilishi tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob’ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi	o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi
o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo‘lishi
mustaqil fikrlash	qaytar aloqaning ta’minlanmasligi
XULOSA	



“Blis-o‘yin texnologiyasi”

Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

Sanalar – 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning o‘rtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.

Tarixiy voqealar – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo‘lindi, Konstantinopol, YustinianI imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo‘natdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yo‘l ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qo‘ldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga ko‘plab yer-mulklar in’om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil o‘rnatilishiga olib keldi.

Yil, sana	Sodir bo‘lgan voqelik

“Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlar.

Reja:

1. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv
2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarning institutsional tizimi, uning ijobjiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish.
3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi.
4. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud masalalar.

1. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur”¹, – deb aytgan fikrlari ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviyma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. – Тошкент, 2017, 45-б.

sifatida belgilab qo'yilgan. 2017 yil 28 iyulda Respublikamizda —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №3160 sonli qarori qabul qilindi. Bunda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlarni yanada jonlashtirish maqsadida Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi va Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim tarbiyaning uyg'unligini pedagog-o'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish, qarashlarni shakllantirish, rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha zamonaviy ilmiy, madaniy va innovatsion texnologik yondoshuvlar, milliy madaniyat va qadriyatlar, milliy g'oya va milliy mafkura hamda iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mohiyatini to'liq tushunib yetishi orqali namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan "Innovatsion yondashuv", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion pedagogika" tarzdagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat².

Yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalashda o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash, o'qish, o'rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar xislari yuqori ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biridir. Dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda kompetensiiali yondoshuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiiali yondashuvda, talabalarning avval o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikmalari yangi muammoli va kutilmagan vaziyatlarda qo'llash talab etiladi. Bilim, ko'nikma va malakalar yangi muammoli va kutilmagan vaziyatlarda qo'llash talabalar tomonidan aqliy faoliyat operatsiyalari: tahlil, sintez, qiyoslash, taqqoslash, abstraksiyalash, modellashtirish, tasniflash, umumlashtirish va xulosa yasashi lozim.

² Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. - Т., 2000. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». - Т.:Ўзбекистон, 1997.

2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish.

Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Fuqaro va yoshlar tarbiyasi quyidagi g'oyaviy ustunlarga tayanadi. AQSh fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar. Yoshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi. AQShning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihat boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat etishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini —o'rtamiyona odam deb biladigan yoxud —men bir oddiy odam deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi.

Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina yetishadi. Har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu —Amerika orzusilikshilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Umuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, —AQSh da bu borada muammo yo'q ekan degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyorilari tomonidan yangi mafkura —liberal — natsionalizm mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarni —AQSh - millatlar hamjamiyatidir g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi. Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab



tanlangan. Chunki mакtabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi —axloqiy tarbiya tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujatlarda —axloqiy tarbiya tizimi quyidagicha nomlanadi:

- 1) —xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim;
- 2) —davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat;
- 3) —fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash³.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679)-“Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir”degan edi. Ikkinci jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan. Yaponiya mamlakatining 30- 40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning hayratini uyg'otadi. —Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?॥.

Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar:- “Salohiyat insonlarda yashirin”. Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi: Mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi, o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada —aydagarasyugi) tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida —axloqiy tarbiyal tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga mакtabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi:

1.—Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish

³ Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиқлол гояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалаврият босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005, - 302 б.

mumkin].

2.—O'z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo'lmaysan].

Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: — “Bor imkoniyatlaringni ishga sol!”.

Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsal, qunt va g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'rnak bo'la oladi. — “Axloqiy tarbiya” natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga hiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi.

Uzluksiz tarbiya jarayoni ta'lim-tarbiya birligiga asoslanib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga parallel ravishda tashkil etiladi. U yangi avlodda siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy fazilatlarni, shuningdek, millat xarakterini shakllantiradi. Demak, ertaga O'zbekistonning yosh avlodi ziyolilari, mutaxassislarining, umuman millatning qanday siyosiy, g'oyaviy, ahloqiy, g'oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugun amalga oshirilayotgan uzluksiz tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog'liq, qolaversa, “Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qo'poruvchilik-terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa – aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o'yangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta'sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o'zi taqozo etmoqda¹. Shunday ekan, bu jarayon o'ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog'i zarur.

Mazkur tizim, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kooperatsiyasining so'nggi yutuqlariga tayangan holda mavjud holatni ma'naviy diagnostik o'rganish, mazmunan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to'la javob bera olish tamoyiliga asoslanadi. Bu esa bolalar bog'chasidan to magistraturagacha bo'lgan jarayonda amalga oshiriladigan har bir tadbirning aniq natijani kafolatlay olishiga e'tiborni qaratish, maqsadga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini tahlil qilish talab etiladi.

¹ Каримов И.А. Ватанимиз тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжихатлиги ва букилмас иродасига боғлик. 12-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2004, 271-бет.

Mazkur tizim ta'lismuassasasining turiga moslab, differensial va siklli asosda amal qiladi. Tizim samaradorligini ta'minlash uchun javobgarlik har bir ta'lismuassasasining rahbari va boshqa mutasaddilar zimmasiga yuklatiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlari mazmuni, amaliyotidagi in'ikosi, olinayotgan natijalar izchil ravishda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari hay'at yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

Mazkur tizim mazmuniga ta'lim muassasalarining hududiy, milliy, ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish hamda o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari tizimining asosiy tavsiflari sifat va samaradorlik hisoblanadi. Har qanday tizim samaradorligi mohiyatiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan baholanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining samaradorligini baholash jarayonida ko'proq ijtimoiy afzalliklar namoyon bo'ladi. Zero, tizimning amal qilishi natijalari ta'lim, tarbiya hamda ijtimoiy madaniyat darajasini yuksaltirish, tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, salbiy ko'rinishdagi holatlar (masalan, ahloqbuzarlik, huquqbuzarlik, nosog'lom turmush kechirish va hokazolar)ni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samarasini sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga tizimning to'laqonli amal qilishi iqtisodiy samarani ham kafolatlaydi. Binobarin, jamiyatda o'zaro birlik, hamkorlik, hamjihatlikka asoslangan ijtimoiy munosabatning qaror topishi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlaring amalga oshirilishi, sog'lom raqobatning yuzaga kelishi aholi, jumladan, yoshlar jinoyatchiliga barham berish, terroristik va diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurashishga sarflanayotgan mablag'ni tejashga imkon beradi.

Manbalar pedagogik tizimning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ikki holat bilan baholanishini ko'rsatadi:

1) tizimning amal qilinishiga ko'ra samaradorligi (natijaning nazariy va amaliy ahamiyati (ijtimoiy foydaliligi) bilan ijobiy natjalarni qo'lga kiritish maqsadida sarflangan hujjatlar o'rtaсидаги farq);

2) istiqbolda jamiyat tomonidan erishilish ehtimoli ko'zda tutilayotgan muvaffaqiyatlarga ko'ra samaradorligi (tizimning amaliyotdagi tatbiqi hisobiga sarflar hajmining kamayishini ifadalovchi ko'rsatkichlar).

Ma'naviy-ma'rifiy ishlari jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi quyidagi omillar hisobiga ta'minlanadi:

Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimi muassasalari barkamol shaxsni tarbiyalash, unda ma'naviy-ahlovqiy sifatlarni hosil qilish, ijobiy xarakter

xususiyatlarini shakllantirish, jismoniy kamolotini ta'minlashga oid nazariy-metodik manbalarning yaratilishi;

Ikkinchidan, ta'lismuassasalarida ijodiy, sog'lom psixologik muhitning qaror topishi;

Uchinchidan, barkamol shaxs tarbiyasi uchun mas'ul sub'ektlar (oila, ta'lismuassasalari, mahalla, jamoat, davlat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mikromuhit) o'rtasida mustahkam aloqani yuzaga kelganligi, hamkorlikning o'rnatilganligi;

To'rtinchidan, ta'lismuassasalarida shaxsning har tomonlama (aqliy, ahloqiy, jismoniy) rivojlanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi;

Beshinchidan, yoshlarni ahloqiy va huquqiy jihatdan qayta tarbiyalashga sarflanayotgan iqtisodiy mablag' hamda vaqt miqdorining kamayganligi.

Tizim sifati tarbiyaviy jarayonda qo'llanilayotgan dastur, maxsus metodika, shuningdek, sinfda, sinfdan va ta'lismuassasasidan tashqarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid o'quv-metodik ishlanmalarning amaliyligi (amaliyotga mos kelishi) bilan tavsiflanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimi samaradorligini quyidgi metodika, shakl, metod va vositalar yordamida baholash mumkin:

- 1) pedagogik kuzatish, pedagogik professiogramma va ob'ektiv ko'rsatkichlar asosida baholash;
- 2) ta'lismuassasalarining faoliyatini yorituvchi meyoriy hujjatlarni o'rganish;
- 3) sotsiometrik (suhbat (tarbiyalanuvchilar yoki ularning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan sub'ektlar – ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar, murabbiylar ishtirokida), anketa, ijtimoiy so'rov, intervyu);
- 4) tashhis metodlari (og'zaki, so'rov, testlar (test-so'rov, test-topshiriq, proaktiv test);
- 5) pedagogik hamda psixologik tajribalar;
- 6) tarbiyalanuvchilarning xarakterini o'rganish; ularning fazilatlari tadrijini o'rganish; psixologik testlar – K.Yung ("Shaxs xarakteri tipini aniqlash"), Rokich – "Ahamiyatli qadriyatlar", Ayzeng metodikalari;
- 7) "Tarbiyalanganlikni o'rganishning pedagogik-psixologik dasturi", "Talabaning ijtimoiy-psixologik portreti", "Pedagogik tavsifnomalar", "Guruh murabbiysi faoliyati to'g'risida"gi Nizom, "Sotsiologik-psixologik xizmat ko'rsatish", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni modellashtirish», «Tarbiyalangan darajalarini baholashning matematik-statistik metodikasi", "Kasbiy va shaxsiy barkamol talaba modeli";
- 8) pedagogik matbuotni o'rganish; modellashtirish (loyihalash);

9) tarbiyalanuvchilarda ularning yoshiga mos ravishda milliy g'oyaning namoyon bo'lishini tahlil qilish.

An'anaviy pedagogik yondashuvda ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiya maqsadlari umumiy xarakterga ega bo'lib, ular tarbiyachi, o'qituvchining sub'ektiv xohish-istiklaridan kelib chiqib belgilangan, muayyan talablar asosida cheklanib qolgan edi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan tadbir va o'quv-tarbiyaviy yondashuvda oldindan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni ko'llash – zamon, taraqqiyot talablaridan biriga aylandi.

Identiv ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy maqsadlar ta'lim-tarbiya jarayonining erishilgan real natijasi sifatida bola, o'quvchi-talabalarning hatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, xatti-harakatlar ichki (fikriy) va tashqi (xulq) ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchi (tinglovchi) nimanidir ta'riflaydi, tushuntiradi, xulq-atvor tarzini loyihalaydi, muhokama qiladi, qo'llaydi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi. Muayyan vaziyatlarda fikriy hatti-harakat "yuzaga chiqib" tashqi hatti-harakatga aylanadi. Bola, o'quvchi, talabalarning bunday hatti-harakatlari o'z navbatida o'quv-tarbiya natijasini ifodalaydi.

Shu bois, tadbir o'tkazuvchi mashg'ulot loyihasini tuzganda identiv o'quv maqsadlarini belgilash bilan bir qatorda shu materialni o'rganishdan ko'zlangan va kafolatli natijaga erishuvni ta'minlovchi identiv tarbiya maqsadlarini belgilab, ularga muvofiq amaliy faoliyatni yo'lga qo'yishlari taqozo etiladi.

Tarbiyaviy tadbirlar – bu muayyan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi, yagona ijtimoiy tarbiyaviy maqsadga bo'ysundirilgan o'zaro ta'sirlar majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy jarayon yaxlit tarbiyaviy metodlar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir tadbir tarbiyaviy jarayonning muhim halqasi, hujayrasi, bo'lagidir. Hozir respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining bir qator resurslari mavjud.

4. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud masalalar.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimi sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada mustaqillikdan buyon qo'lga kiritilgan yutuqlar, kamchiliklar, muammolar tahlil qilinib, maqbul rejalar belgilanmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'lim sohasidagi mavjud muammolar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni quyidagicha ko'rsatib o'tdi: —...umumta'lim maktablari, litsey va kasbxunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu - pedagoglar va professor-



o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lif olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.⁴

"Uzluksiz ta'lif tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi"da milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va mafkuraviy jihatdan eskirgan, to'liq an'anaviy usulida nashr etilayotgan darsliklar ma'lum qismining yangi ta'limiy ehtiyojlarini qondira olmayotgani ko'rsatilgan. Bugungi kunda ma'ruza darslarini hamda amaliy mashg'ulotlarni multimedia-elektron dasturlari asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Davlatimiz rahbarining: "Etuk, komil, barkamol yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, menga o'z kasbining fidoyisi va har qanday sohada raqobatlasha oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab bering", - deb ta'kidlashi bejiz emas. Bugungi kunda har bir pedagog o'zi dars berayotgan fan uchun multimedia- elektron dasturini tayyorlab, undan keng tarzda foydalana olishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Multimedia-elektron dasturi quyidagi didaktik va pedagogik-psixologik talablarga javob berishi shart. 1. Didaktik talablar ilmiylik, o'zlashtirishning yengilligi, muammoni qo'yish va har tomonlama asosli tarzda bilim olish, o'qish jarayonida talabaning faol va ongli ishtiroki, bilim olishning tizimli va bosqichmabosqich amalga oshirilishi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi, ta'lif tizimida bilimni o'zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi o'qituvchi va talabalar vazifalarining yaxlitligi, talaba uchun o'qish ixtiyoriy bo'lishining ta'minlanishi, o'qitishda interfaol usullardan foydalanish, o'qitishning uyg'unligini ta'minlash, o'quv materialini taqdim etishda tizimli yondashuvi kabilardan iborat. 2. Pedagogik-psixologik talablar multimedianing psixologik, estetik, gigienik va tibbiy psixologik jihatdan mavjud ehtiyojlarini qondirishi shart. O'quv jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash, pedagogik usullarning kengayishi, pedagogik kasbiy faoliyat mazmunining boyitilishi, ish uslublarining takomillashishi, pedagogik tizimlar tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Ta'lif jarayonida ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llashda "Birga bir", "Birga ko'pchilik" hamda "Ko'pchilikka ko'pchilik" masofaviy o'qitish usullari, modullashtirish, "Aqliy hujum", "Delfi usuli", forumlar, loyihalashtirish guruhlari kabi interfaol usullardan samarali foydalanish ta'lif samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'lif samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarni ma'naviyatini shakllantirish, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana

⁴ Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. -Т.: 2017, 47-бет



va urf-odatlarimizni asrabavaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi, elektron darsliklar orqali uzatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'lismiz xodimlari mazkur bilimlarga ega bo'lsalar ular o'z faoliyatida axborot olish, uni qayta ishlash va dars jarayonida axborotni o'quvchiga yetkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Ta'lismiz xodimlarini bunday ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari albatta darslarda milliy g'oyani o'quvchilarga singdirish jarayoni yanada jonlanadiradi va uning ta'sir quvvati yanada ortishiga olib keladi. Har bir dars oldiga ta'limiyy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ya'ni birbiri bilan uzviy aloqada bo'lgan uch yoqlama maqsadlar qo'yiladi. Zamonaviy darsni tashkil qilish shartli ravishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, bu jarayonda o'quv materiallari, ta'lismetodlari va axborot komunikatsion texnologiyalari ham asosiy rol o'ynaydi. Darsni tashkil etishda o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilar birgalikda harakat qiladilar. Bunday darslarda o'quvchiga obe'kt emas, balki shu darsning ishtirokchisi – sub'ekti sifatida qaralishi, har bir o'quvchining individual hususiyatlarini xisobga olinishini ta'minlab beradi. Darsning natijasini aniqlash ham avvalo har bir o'quvchining individual o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda guruhiy va jamoaviy natijalarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lism-tarbiya jarayonida o'quvchilarga milliy g'oyani singdirish uchun dars jarayoniga zamonaviy yondashuv, ya'ni ta'lism-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, ta'linda o'quvchilarga milliy g'oyani singdirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ularni mustaqil fikrlovchi, sobit e'tiqodli, vatanparvar, barkamol shaxs etib tarbiyalash ekan hozirgi kunda bu natijalarga ta'linda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llamasdan turib erishib bo'lmaydi. Shunday ekan, hozirgi zamon Ta'lismiz xodimlari o'z faoliyatlari uchun zarur bo'lgan, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi, darsning maqsadiga erishishni ta'minlab beruvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'rganishi hamda ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari lozimdir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: xorijiy tajriba, MDH tajribasi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi, xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili, O'zbekiston va jahon, targ'ibot ishlari, institutsional tizim, institutsional tizimining ijobjiy jihatlari va hk.

Nazorat savollari:

1. Milliy g'oya turkumidagi (Odobnama, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati nimada?

2. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lif qanday jarayon sifatida e'tirof qilingan?
3. Yaponlarda, maktabga qanday ta'rif beriladi?
4. Taniqli siyosatchilardan kimlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb aytishadi?
5. Niderlandiyada qariyib qancha yoshlar kunduzgi o'quvlar bilan qamrab olingan?
6. Amerikada fuqaro va yoshlar tarbiyasi qanday g'oyaviy ustunlarga tayanadi?
7. Hozirgi kunda AQShning ziyolilari tomonidan qanday yangi yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda?
8. Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning qanday eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. -T.: —O'zbekiston, 2013.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lif sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.
3. Michael Freeden. Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)
4. The geopolitics reader .Edited by Gearóid Ó Tuathail, Simon Dalby and Paul Routledge. – London and New York. Routledge Taylor & Francis e- library, 2003.
5. David A. Deyese. Globalization: Causes and Effects. –Boston College, USA Ashgate, 2012.

2-Mavzu: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida zamonaviy texnologik uslublar

Reja:

1. “Zamonaviy texnologik uslublar” tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi
2. Milliy g’oya targ’ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari
3. Zamonaviy texnologik uslublardan foydalanishining turli xil ko‘rinishlari va natijalari

1. “Zamonaviy texnologik uslublar” tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi

Jamiyat hayotida “Zamonaviy texnologik uslublar” tushunchasi keng qo’llanilmoqda. Uni jamiyatning iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq, ya’ni iqtisodiy sohaga keng kirib borayotgan zamonaviy texnologik usulub bu ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish va yuqori mehnat unumдорligiga erishish uchun qo’llanilayotgan fan-texnika sohasidagi yutuqlarini anglatadi. Bu ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, milliy g’oyani xalqimiz onggi va qalbiga singdirish maqsadida ham turli yo‘nalishlarda yangi, zamonaviy texnologiyalardan (mahorot usullaridan) foydalaniladi. Uning ikki jihatini hisobga olish kerak: 1) fan-texnikaning turli sohalarida qo‘lga qiritilgan yutuqlar; 2) milliy g’oyani targ’ibot-tashviqot qilishda ana shu ilmiy-texnika ko‘rinishlaridan mahorat bilan foydalanishning g’oyaviy-mafkuraviy uslublaridagi yangiliklar, o‘zgarishlar.

Hozirgi kunda “zamonaviy texnologiyalar” tushunchasi jamiyat hayotining turli sohalarida, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasida keng qo’llanilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yuqori mehnat unumдорligiga erishish, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun qo’llanilayotgan fan va texnika yutuqlari “zamonaviy texnologiyalar” tushunchasida o‘z ifodasini topmoqda.

Milliy g’oya targ’ibotida, uni yoshlar ongi va qalbiga singdirish jarayonida ham eskirgan uslub va zerikarli va’zxonlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalardan, ya’ni yangicha mahorat usullaridan foydalanish yuqori samara berishi shubhasiz. Uning ikki jihatini hisobga olish kerak bo‘ladi: birinchidan, fan va texnikaning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlari; ikkinchidan, milliy g’oya targ’ibotida ana shu ilmiy-texnik taraqqiyot mevalaridan mahorat bilan foydalanishning g’oyaviy-mafkuraviy uslublaridagi yangiliklar, o‘zgarishlar.

Demak, “**Zamonaviy texnologik uslublar**” tushunchasini milliy g’oya targ’ibotiga nisbatan quyidagicha ta’riflash mumkin: “**milliy g’oyani targ’ib va tashviq etishda foydalaniladigan ilm-fan yutuqlari, eng so‘nggi natijalariga**

tayangan texnik vositalar hamda ulardan foydalanish mahoratidagi yangicha g'oya, qarashlar, uslublar hamda innovatsion texnologiyalar majmui”.

Ularni quyidagi yo'nalishlarda ifodalash mumkin: Ta'lif va tarbiya sohasiga doir zamonaviy texnologik uslublar; y muassasalarda qo'llaniladigan zamonaviy texnologik uslublar; madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida qo'llaniladigan zamonaviy texnologik o'zgarishlar; adabiyot va san'at sohasidagi yangiliklar, ulardan foydalanishdagi texnologik uslublar; din sohasida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilayotganligi; jismoniy madaniyat va sport sohasidagi yangi texnologiyalar; urf-odat, marosim va bayramlarni yangicha asosda tashkil etilganligi; oila, mahalla, mehnat jamoalaridagi yangi yutuqlar, o'zgarishlar; OAV va jamoat birlashmalari faoliyatidagi yangi texnik va texnologik o'zgarishlarni hisobga olish va h.k.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni birinchi muhim sharti – ulardan tizimli foydalanish, o'quv jarayonini rejalshtirish amaliyotida qo'llashdir. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy pedagogik interfaol usullardan foydalanish yuksak samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish yo'lida jamiyatimizdagи barcha kuchlar – davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar faol ish olib bormoqda. Ilg'or jamoatchiligidimiz, ziyorilarimiz bu ezgu ishga o'z hissasini qo'shamoqda. Bugun odamlarimizning ongi va tafakkuri o'zgardi. Internet tizimi, mobil aloqa ular uchun kundalik talabga aylandi. Ayni paytda, biz o'z g'oyamizni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirmasak, boshqalar bizga yot va zararli g'oyasini singdirishga harakat qiladi. Shuning uchun, yuqorida qayd etilgan sohalarning har bir sub'ekti bunga alohida e'tibor berishi kerak. Bu sohalarni zamon bilan hamnafas holda faoliyat yuritishini, mamlakat istiqboli to'g'risida qayg'urishni, tinmay izlanishni, ilmiy ixtirolarni amalga oshirish va ularni hayotga tatbiq etishni taqazo etadi.

2. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari

Mafkuraviy kurash tobora kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida milliy g'oya targ'ibotida quyidagilarni e'tiborga olish juda muhimdir:

- targ'ibot maqsadlarini aniq bilish;
- targ'ibot yangiliklarini o'rganib borish va hisobga olish;
- g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan alohida e'tibor berish lozim bo'lgan ijtimoiy qatlam va guruhlarni aniqlash;
- targ'ibot olib boriladigan auditoriyaning xususiyatlarini bilish;



□□□ targ'ibotning strategik yo'naliшhlarini, mavzularining mazmun-mohiyatini, ularning o'zgaruvchanligini hisobga olish taqazo etiladi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish aholining turli qatlamlari o'rtasida milliy g'oyaning mazmun va mohiyatini

tushuntirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli, bosqichma-bosqich, uzluksiz va tizimli tarzda olib borish zaruratini tug'diradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlashda zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish muhim rol o'yndaydi. Ushbu yo'naliшhda olib boriladigan ishlarni amalga oshirishda har bir ish rejasи, uni amalga oshiruvchi mas'ul shaxslar, tadbirlarni o'tkazish muddati, ularni tashkil etish, tadbir samaradorligini ta'minlash, yakuniy tahlil etish, sotsiologik so'rovlар, ijtimoiy fikrni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zlangan maqsadga erishish, ya'ni aholi va yoshlar ong va dunyoqarashiga milliy g'oya, ma'naviyat asoslarini singdirishda zamonaviy siyosiy texnologiyalar, ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar (PR – pablik rileshin) texnologiyalarini qo'llash muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv jarayonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy va ekologik yo'naliшharda tobora kuchayib borishini anglash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sir doirasining tobora kengayib borishidan kelib chiqqan holda har bir fuqaro, ijtimoiy qatlam huquqiy manfaatlari, qiziqishi va jamiyatda tutgan maqomini etiborga olish, turli omil, ehtiyoj, qoida va talablar doirasida kelib chiqib ish olib borishni, usullardan to'g'ri va unumli foydalanishni talab etadi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologik uslublarida har bir shaxs, siyemoning karashida muhim rol o'ynovchi omillar mavjud bo'lib, ularda:

1. Madaniy xususiyatlarni hisobga olishi lozim.

2. Shaxsning ta'lim darajasini hisobga olish lozim. Bugungi kunda ko'plab odamlarning e'tiborini tortish, masalan, oliy ma'lumotlilar yoki turli jamoatchilik vakillari bilan muloqotlar tobora rang-barang bo'lib bormoqda. Bu texnologiyalardan foydalanishda o'ziga xos yondashuvni taqazo etadi.

3. Oilaviy muhiti. Ma'lumki, bolalarning fikri, sezishi, dunyoqarashi, siyosatga munosabati va boshqalarni ko'pincha ota-onadan oladi. Insonning ijtimoiylashuvida oilaning o'rni juda katta.

4. Shaxsning jamiyatdagi o'mini hisobga olish. Odamlarning ijtimoiy maqomi o'zgarishi bilan ularning hatti-xarakati ham o'zgarib turadi.

5. Milliy, etnik yoki irqiy mansubligi bilan bog'liq xususiyatlarni bilish lozim.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi ehtiyoj pog'onalari quyida keltirilgan:

❖ Jismoniy ehtiyojlar;

❖ Ikkinchi darajali ekzistensial ehtiyojlar: o'zining yashashi uchun xavfsizlik talablarini yaratish, hayot faoliyatdagi himoya, sharoit, sokinlik va barqarorlik sharoitlari.

❖ Uchinchi darajadagi sotsial extiyojlar: bog'liklik, muhabbat va sadoqat, ma'lum guruhg'a mansublik.

❖ To'rtinchi darajadagi ehtiyojlar: tan olinish, ishonch va etakchilik, layoqat va ta'sirchanlik, idrok va yutuqlar.

❖ Yuqori daraja: - o'zini ifodalash yoki oddiy inson nimaga qodir bo'lsa, o'shanga erishish. O'zini namoyon etish, ijod orqali o'zini tan oldirish va maqsadiga etishdir.

Ushbu besh daraja har qanday shaxs yoki sotsial guruhning milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarishda e'tiborga olishi samara berishi mumkin bo'lgan muhim ehtiyojlari sanaladi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi qoidalarni:

1. Turli omillardan foydalanishda oshkora misol, rasm, ko'rgazmalarni namoyish etishga, kutilmagan harakatlar qilishga, ba'zi odamlarni koyish va urishishga shoshilmaslik, birinchi navbatda shart - sharoitni o'rganish va tahlil etish;

2. Odamlarni o'zingizni qabulingizga chaqirmang, ularning ichiga o'zingiz boring. Ko'pchilik odamlar turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda kamroq qatnashadi. Odamlarning cheklangan qiziqishini tushunib etgandan so'ng, jamoatchilik hissiyotlarini e'tiborga olish, nimaga qodirligi asosida real strategiyani ishlab chiqish mumkin.

3. Odamlarning xulq-atvorini o'zgartirish uchun umuman tadbirlarni birdaniga o'zgartirishni o'ylamang. Turli axborot va talablarni etkazishda asosli va bosqichma-bosqich xarakat qilish.

4. Axloqiy misollarni keltirishni asosiy dalil emas, qo'shimcha vosita sifatida qo'llash. Axloqiy qadriyatlarni o'zgartirish juda qiyin. Raqibni axloksizligi haqida gapirishdan ko'ra, ko'proq o'z qaroringizni ustunligini namoyish eting, ko'pchilikning qo'llashiga alohida e'tibor bering.

5. Bosh mezondan foydalaning. Har qanday ish, tadbirlarda aholining barcha qatlamlarini quvvatlashiga erishing. Shart-sharoitni o'zgartirish uchun, unga barcha faol odamlarni jalb eting.

6. Ishontirmoqchi bo'lgan odamlarni xafa qilmang. Muammolarni o'rganish orqali olingan amaliy dalillar natijasiga qaraganda, odamlarga ularni ishontirgan, yoqadigan odam ko'proq ta'sir qilar ekan, chunki uni o'zimizning odam deb hisoblashadi.



Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlariiga oid ayrim talablar, milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarini tashkil etish ham ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunadi, o'zining ma'lum tuzilishiga egadir. Ma'naviyat dunyoqarashlar tizimi bo'lib, uning aniq tuzilmasi bo'lishi va ma'lum talablarga javob berishi kerak. Ushbu talablar milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarning izchilligi, uning yanada rivojlanishi va hayotiyligi imkoniyatlarini belgilaydi:

❖ Universal (har tomonlama) bo'lishi kerak. Ya'ni, bir necha qonun - qoidalari, yo'naliishlardan tashkil topgan bo'lishi, ularning yordamida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda kechayotgan holatlarni yorita olishi kerak.

❖ Tushunarli bo'lishi va aynan yo'naltirilgan aholi qatlamlari manfaatlariga javob berishi kerak. Bu aholining turli sotsial guruh, qatlamlariga nisbatan belgilangan vazifalarni echishi kerak. Shuning uchun g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy masalalar birinchi navbatda dolzarb bo'lishi kerak.

❖ G'oyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlar texnologiyalari konservativ va "qotib qolgan", eskicha bo'lmasligi, ya'ni o'zgarib turuvchi voqealarga munosabat bildira olishi kerak.

❖ Ma'naviyat, ma'rifat va mafkura qoidalari mos kelishi kerak. Milliy g'oyani jamiyatdagi turli qatlamlar ongiga singdirish, o'zligini anglash va jamiyatni boshqarish uchun muhim. Ma'naviyat va ma'rifatni ham, mafkurani ham, faqat bir soha bilan bog'lamaslik kerak. Ular g'oya, ma'naviyat va ma'rifat sohalarining hamohangligi va qamrovida bo'lishi kerak.

Biz axborotlar asrida yashamoqdamiz. Ilmiy-texnika inqilobi, axborotlar texnologiyalari – ishlab chiqarish, tibbiyot, siyosat va boshqalarga juda katta ta'sir etmokda. Ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan davlatlar boshqa mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazishga urinishi tabiy, aynan shuning uchun ham dunyoda ilmiy zahira va imkoniyatlar uchun kurash to'htayotgani yo'q.

Ma'naviy va mafkuraviy ishlar sohasida esa, ularni doimo milliy g'oya, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning zamonaviy ma'lumotlari asosida rivojlantirib borish muhim vazifa xisoblanadi. Shuning uchun g'oyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni, takomillashtirish, o'tmish saboqlarini xisobga olgan holda yangi shart-sharoitlarga moslashtirish lozim. Shundagina g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchan va samarali bo'ladi.

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha aholi o'rtasida o'tkaziladigan tadbirlarda unda qatnashayotgan ishtirokchilar, ularning ma'lumot



darjasи, kasbi, jamiyatdagi o'rni, maqomidan kelib chiqqan holda tashkillashtirishni, izohlashni va atroficha tushunchalar berish orqali amalga oshirishni talab etadi⁵.

3. Zamnaviy texnologik uslublardan foydalanishining turli xil ko'rinishlari va natijalari.

Bugungi kunda ayrim xorijiy ommaviy axborot vositalari bizga o'z mafkurasini singdirishga urinayotganini sezish qiyin emas. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: «Sir emas, ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi». Mazkur holat ham milliy g'oya targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishni hamda har qanday mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ogoh bo'lishni taqazo etadi. Bu esa targ'ibot-tashviqot ishlariga yangicha texnologiyalar, yondashuvlar, uslub va vositalarni jalb etishni talab qiladi.

Yoshlar ongiga yot g'oya va buzg'unchi mafkuralarni singdirishga qaratilgan axborot-psixologik ta'sirdan ko'zlangan maqsadlar quyida qeltirilgan:

- ❖ yoshlar onggida siyosiy va mafkuraviy beparvolikni hosil qilish;
- ❖ yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini izdan chiqarish;
- ❖ «olomon» yoki «to'da» ongini shakllantirish;
- ❖ davlatga nisbatan norozilik kayfiyatini tug'dirish;
- ❖ mavjud tuzumga nisbatan ishonchsizlik keltirib chiqarish;
- ❖ tartibsizlikni vujudga keltirish;
- ❖ yoshlarni «zombi»ga aylantirish va h.k.

Axborot xurujiga qarshi kurashda samaraga erishish uchun nishoniga aylangan ob'ektni aniq bilish lozim.

Birinchidan, axborot-psixologik xuruj ko'proq mo'ljalga olgan ob'ekt jamiyatning qaysi qatlamida, qaysi ijtimoiy guruhdan iborat; ularning muammosi nima, qiziqishlari qanday, hozirda va kelajakda nimani hohlashadi kabi savollarga javob aniq bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, mamlakat miqyosida yangilik niqobida kutilayotgan axborotpsixologik tahdid va xavf-xatarlarning yo'nalishlarini, qaysi tomonga yo'naltirilganini aniqlash kerak.

Uchinchidan, jamiyat hayotida, ayniqsa, yoshlar hayotida o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal etish, mamlakatimiz erishayotgan yutuqlarni elektron saydlar orqali dunyo xalqlariga ko'rsatish va mavjud elektron saydlarni yanada kupaytirish va takomillashtirish, axborot xizmatlari faoliyatini yanada oshirish lozim.

⁵ Қаранг: Миллий ғоя илмий-тадқиқотларининг назарий-методологик асоси. 1-китоб, Андижон., 2008. Б-62-66.

Binobarin, axborot-psixologik xurujlar kuchayishi, ko'lami kengayishining oldini olish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

❖ Echimini kutayotgan dolzarb muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi tahliliy axborotlarni intensiv ravishda xalqaro axborot makoniga chiqarishni kuchaytirish;

❖ Mavjud muammolarning echimi haqida, ularning bartaraf etilishi yuzasidan davlatning olib borayotgan ishlari to‘g‘risida xalqaro jamoatchilik qanchalik ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lsa, axborot-psixologik xurujning ta’siri shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni xuruj bartaraf etiladi.

❖ Yoshlar ongida mustaqil tafakkur, ongli mushohada va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish;

❖ Davlat amalga oshirayotgan har bir islohot, har bir jarayon haqida, siyosiy va ijtimoiy yangiliklarning har taraflama tahlilini ommaviy-axborot vositalari orqali yaqin va uzoq xorijga tarqatish;

❖ Bugungi texnik imkoniyatlar natijasida buning qiyinligi yo‘q, aksincha murakkabligi esa axborot tahlili va uning tezkorlikda tarqatilishidadir.

❖ Nafaqat yoshlarda, katta yoshdagi aholida ham axborot immunitetini hamda hushyorlik va ogohlilik refleksatsiyasini shakllantirish kerak.

Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun turli xil nuqtai nazarlardan iborat bo‘lgan dasturlarni yaratish, turli chiqishlarda muqobil fikrlarga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag‘batlantirishga qodir bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlardan ommaviy axborot vositarining islohoti «g‘oyalalar bozori»da hali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovon qilishga yo‘naltirilgan yangi g‘oyalalar, taklif va tavsiyalar bu «bozor»da bemalol raqobat qila oladi.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirishga yo‘naltirish va rivojlantirish, uning tarkibiy qismlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish imkonini beradi. Natijada, avvaldan loyihalashtirish, ta’sir ko‘rsatuvchi «salbiy» va «ijobiy» omillarni aniqlash hamda harakat dasturini har tomonlama ishlab chiqish imkoniyati kafolatlanadi. Yoshlarning immunitetlarini shakllantirish uchun muayyan takomillashgan texnologiyani qidirib topib, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to‘liq anglab olish va amaliyotga qo‘llashgacha bo‘lgan davriylik murakkab jarayondir.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirish alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to‘liq o‘rganishni taqazo etadi.

Bunga asosiy sabab:

❖ immunitetni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash tahdidining mavjudligi;

❖ yoshlar to'qnashadigan, ba'zan ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – bu orzuning, shaxsiy fikrning o'ylaganidek ro'yobga chiqmasligini anglash;

Yoshlar aksariyat hollarda o'z dunyoqarashi, shaxsiy tasavvurlari doirasida va saviyasida fikrlaydi, bu fikrlashni vaziyatning ijobiy yoki salbiy holatlari bilan bog'lab tahlil qilish tajribasiga ega bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy g'oya targ'iboti siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va axloqiy tarbiya bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mafkuraviy faoliyat ana shunday yaxlit tizim shakliga keltirilgandagina mukammallik kasb etadi. Umuman olganda, targ'ibot-tashviqot texnologiyalarining ta'sirchanligini oshirishda quyidagi usullarni qo'llash kutilgan samarani berishi mumkin:

Birinchidan, targ'ibotda murakkab, chalkash, mavhum fikrlardan foydalanish samarasizdir. Mazmun qanchalik sodda, aniq tushuntirilsa, ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi.

Ikkinchidan, inson ko'proq hissiy ta'sirga moyil bo'ladi, shuning uchun uning aql-idroki bilan bir qatorda, his-tuyg'ularga ham murojaat qilish samara beradi.

Uchinchidan, targ'ibot matnlari chuqur o'ylangan, mantiqiy izchil, ijodiy ishlab chiqilgan bo'lishi darkor;

To'rtinchidan, targ'ibotdagi qudratli usul ishontirishdir;

Beshinchidan, targ'ibot ishlarining samarasini oshirish uchun noan'anaviy usullarni qo'llash va ilg'or tajribalarni keng yoyish talab etiladi.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy texnologik usullar, yangi texnologik uslub sohalari, siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, noan'anaviy usullar, yangi texnologiyalardan foydalanish usullari.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar.

1. Zamonaviy texnologik uslublarni "Klaster" usulidan foydalanib tahrir qiling.
2. Milliy g'oya targ'ibotida an'anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni guruhlarga bo'linib afzal va cheklangan tomonlarini ko'rsating.
3. Yot va zararli g'oyalar ta'siriga tushgan ayrim yoshlarni milliy g'oya targ'ibot texnologiyalaridan foydalangan holda ularning milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodini oshirish yo'llarini asoslang.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. -T.: —O'zbekiston, 2013.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnalı. № 4, may, 2012 yil
4. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.

3- mavzu: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligiga erishish yo'llari.

Reja:

1. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi
2. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari
3. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari

1. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi.

Har qanday ijtimoiy faoliyat va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan usul-vositalarning, shu jumladan milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining ijtimoiy-amaliy qimmati va ahamiyati ularning samaradorligi bilan belgilanadi. O'zbek tilida "samara" so'zi - natija, hosila, foyda degan ma'nolarni bildiradi. "Samaradorlik" esa - samarali, foydali bo'lishlik; foydalilik demakdir. Binobarin, "samaradorlik" tushunchasi ishharakat yoki faoliyatning foydali, samarali bo'lgan holatini ifodalaydi. Shunga ko'ra, milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligi deganda, mazkur texnologiyalar qo'llanilib amalga oshirilgan targ'ibot va tashviqot ishlarida erishiladigan yutuqlar, ijobiy natijalar ko'lami va darajasi tushuniladi. Bu esa milliy g'oyani aholi ongi va qalbiga singdirish, tushuntirish, mohiyatini ochib berishdag'i

real natijalarda namoyon bo'ladi. "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, - deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir".⁶ Ushbu fikrda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan g'oyaviy targ'ibot va tashviqot ishlarining, jumladan ularda qo'llanilayotgan usul-vosita va texnologiyalar samaradorligining ham mezoni aks etgan.

Ayni paytda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligida ularning zamonaviyligi, to'g'ri va mahoratlari qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda samaradorlik, targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiquvchi va ularni qo'lllovchi sub'ektlarning bilim saviyasi, malaka va mahoratiga ham bog'liq, albatta. Umuman esa, targ'ibot texnologiyalarining samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy shart-sharoitlar, aholi turmushidagi yangilanish va o'zgarishlar hamda ularning hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarning natijalari bilan bog'liq bo'lib, qo'yidagilarda namoyon bo'ladi:

- ❖ jamiyat hayotida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit;
- ❖ milliy g'urur va vatanparvarlikning yaqqol namoyon bo'lishi;
- ❖ aholinig ko'tarinki kayfiyati, ruhan tetik va faolligi;
- ❖ jamiyat hayotidagi voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg'usining kuchayishi;
- ❖ ijtimoiy-siyosiy ongning yuqoriligi;
- ❖ ijtimoiy hayot va turmushdagi tolerantlik;
- ❖ jamiyatda turli ijtimoiy illatlarning kamayishi yoki umuman barham topishi;
- ❖ kishilarning kelajakka bo'lgan ishonchi va sh.k.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, umuman jamiyatdagi turli bosqich, soha, daraja va ko'lamda amalga oshiriladigan g'oyaviy-mafkuraviy ishlarning, shu jumladan milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligini belgilovchi mezonlardan biri, bu – jamiyatimizda yashayotgan kishilarning milliy g'oyaga bo'lgan mustahkam ishonch-e'tiqodi, ya'ni mafkuraviy e'tiqodidir.

Darhaqiqat, har qanday shakl-ko'rinish va yo'nalishda qo'llanilayotgan g'oyaviy targ'ibot va tashviqot texnologiyalarining predmeti, maqsadi va vazifalarida kishilarda muayyan g'oya, qarash va ta'limotlarga doir bilim hamda ishonch-e'tiqodni shakllantirish asosiy o'rin tutadi. Shunga ko'ra fuqarolarimizda milliy g'oya to'g'risidagi haqqoniy bilim bilan unga nisbatan mustahkam ishonche'tiqodga asoslangan mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish jamiyatimizda amalga oshirilayotgan g'oyaviy targ'ibot va tashviqot samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

⁶ Каранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, Б-76-77.

Bu o'rinda mafkuraviy e'tiqod jamiyatdagi kishilar, turli ijtimoiy guruh, birlik va toifalar faoliyatini tartibga solib, aniq maqsadlarga yo'naltiruvchi g'oyalarga qattiq ishonchdan iborat ruhiy-ma'naviy kuchdir. U ma'lum bir ijtimoiy g'oyalarning kishilar uchun ruhiy-ma'naviy hayot tamoyillariga aylangan holatidir.

Mafkuraviy e'tiqodning shakllanishi o'ziga xos ijtimoiy asos va omillarga bog'liq bo'lib, bunda g'oyalarga, undagi maqsad va orzu-ideallarga ishonch alohida o'rin tutadi. Ya'ni, umuman, g'oyalarning haqqoniyligiga va ularning ruyobga chiqishiga bo'lgan ishonch har qanday mafkuraning hamda u bilan bog'liq barcha xususiyatlarning shakllanishida asosiy rol o'yaydi. Shunga ko'ra, mafkuraviy e'tiqodni ijtimoiy hayotdagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida shakllanadigan, kishilarning ongi va qalbida ma'lum g'oyalar haqidagi bilimtasavvurlarga asoslangan hamda ana shu g'oyalarni ruyobga chiqarishga bo'lgan mustahkam ishonchdan iborat ruhiy-ma'naviy hodisa sifatida ta'riflash mumkin.

Mafkuraviy e'tiqod o'ziga xos tarzda, turli bosqich, daraja va ko'lamlarda, ijtimoiy ong va ruhiyat bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, rivojlanadi. Ijtimoiy ong va ruhiyat mafkuraviy e'tiqodning individual va ijtimoiy darajalarda, faolkonstruktiv yoki passiv-konservativ xarakterda rivojlanishini belgilaydi. Shunga ko'ra kishilardagi g'oyaviy bilim-tasavvurlar bilan ruhiy-emotsional xislatlarning uyg'unligi mafkuraviy e'tiqodning mazmunida muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda mafkuraviy e'tiqodda g'oyaviy bilim emotSIONAL-ruhiy xususiyatlar bilan birlashib, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj va manfaat talablariga mos keladigan ishonchga aylanadi. Ishonch, shu ehtiyoj-manfaat va amaliy tajribadan kelib chiquvchi maqsad, orzu-intilishlarga nechog'li mos kelishiga qarab e'tiqodga aylanadi, yoki aksincha. Ayni mana shu hol mafkuraviy e'tiqodni va unga asoslangan mafkuraviy immunitetning shakllanib, rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, jamiyatdagi umumiylar maqsad, orzuideallarga va ularni ruyobga chiqarish yo'llariga xalq ishonchini shakllantirish – milliy mafkurani rivojrantirish va undagi g'oyalarni amalga oshirishning muhim shartidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda xalqimizning asosiy maqsadi – yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, kishilarimizda ana shu ulug'vor ezgu g'oyani ro'yobga chiqarishga bo'lgan mafkuraviy ishonch-e'tiqodni shakllantirish g'oyaviy targ'ibot samaradorligini ta'minlashdagi eng muhim vazifalardandir. «Milliy g'oya xalqning ishonch-e'tiqodiga aylansa, u o'zining kutilgan samarasini beradi»⁷.

Haqiqiy ishonch-e'tiqod, o'z mohiyatiga ko'ra, buyuk va qudratli ruhiy ma'naviy kuch bo'lib, har qanday mafkuraning amal qilishida va undagi g'oyalarning ro'yobga

⁷ Каранг: Миллий истиқлол ғояси. Ўзбекистон Республикаси олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслер. –Т.:Академия, 2005, Б - 131.

chiqishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Zero, e’tiqodli odam ulug‘vor, qudratli va jasur bo‘ladi. Buyuk bobomiz Amir Temur ko‘targan ezgu g‘oyalarning amalga oshishida ajdodlarimizning shu g‘oyalarga bo‘lgan mustahkam ishonch-e’tiqodlari muhim o‘rin tutgan. Ana shu ishonch-e’tiqodlari bilan buyuk ajdodlarimiz Vatanni ozod qilib, qudratli davlat, adolatli jamiyat barpo etishga harakat qilishgan. Bularga erishish uchun hayoti va jonlarini tikib kurashishgan.

Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ko‘tarilgan hamda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev tomonidan yanada samaradorligi oshirilayotgan milliy g‘oyani to‘la ro‘yobga chiqarish uchun xalqimizda shu g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy ishonch-e’tiqodni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu vazifani samarali hal etilishida jamiyatimiz hayotining turli sohalarida xizmat qilayotgan kadrlar alohida o‘rin tutadi. Ya’ni, umuman, g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarga, xususan milliy g‘oyani xalq ishonch-e’tiqodiga aylantirishga jamiyatdagi faqat bir soha yoki toifaning, masalan, ta’lim-tarbiya tizimi va unda o‘qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoki shu sohadagi mutaxassis, o‘qituvchi va targ‘ibotchilarining vazifasi deb qaralmasligi, balki bunga hamma fanlar va ta’lim-tarbiya yo‘nalishlari, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan barcha ziylilar, ayniqsa el ichida muayyan ijtimoiy mavqega ega kishilar: rahbar kadrlar; olim, yozuvchi, shoir, san’atkor va sh.k.lar bevosita mas’ul ekanligini alohida e’tirof etish lozim. Chunki, har qanday jamiyatdagi kishilar ijtimoiy mavqeい baland odamlarning gapi va hatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratishadi, ko‘proq ularning aytganini ma’qullashib, orqasidan ergashadi. Ulardan o‘rnak olishadi. Qolaversa, bu hol bizning xalqimiz xarakteridagi, milliy mentalitetidagi asosiy belgilardan biridir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, g‘oyaviy targ‘ibot va tashviqot samaradorligini ta’minlashda el ichida obro‘-e’tibori baland kadrlarning faoliyati ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Bunday kadrlarning mavqe-martabasi, etakchilik salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, kishilarga shu qadar ko‘p va kuchli g‘oyaviy ta’sir o‘tkazadi.

Odamlar obro‘li kishilarning fikr-qarashlari, g‘oya va mafkuralariga qarab, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, umumxalq manfaatlari va maqsadlarini tushunadi, ularning amaliy faoliyatlarini kuzatib, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatları va davlat siyosati haqida xulosalar qiladi. Lo‘nda qilib aytganda, el hurmat qiladigan odamlarning aytayotgan gaplari va qilayotgan ishlari kishilarda milliy g‘oya va mafkuraga nisbatan ishonch-e’tiqodning shakllanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. «Odamlar har qanday rahbarni birinchi galda uning faoliyati, ishining amaliy natijasiga qarab baholaydi. Quruq savlat va balandparvoz gaplar bilan emas, faqat shu

hisobidan rahbar obro‘ topishi, hurmat qozonishi mumkin»⁸. Shu bois milliy mafkurani keng jamoatchilik ongiga singib, xalqchillashishi va sog‘lom ishonch-e’tiqodga aylanishi uchun kadrlarning faoliyatiga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ularning milliy g‘oyaga nisbatan munosabatlarida turli xil manfaatlar emas, ishonch-e’tiqod ustun turishi lozim. G‘oyalarning haqqoniyligi va ularni ro‘yobga chiqarish usul-vositalarining to‘g‘riligiga ishonch-e’tiqod shu tariqa shakllanishi mumkin.

Ayni paytda, milliy g‘oya xalq ishonch-e’tiqodiga aylanib, ularda mafkuraviy immunitet rivojlanishi uchun jamiyatdagi kishilarning mafkuraga amal qilishini rag‘batlantiruvchi stimul - rasmiy siyosiy, huquqiy asos va shart-sharoitlar bilan bog‘liq real ijtimoiy muhit, mexanizm – ruhiy-ma’naviy motiv ham bo‘lishi lozim. Chunonchi, jamiyatda ma’naviyat va ma’rifatning ijtimoiy-siyosiy maqomi hamda madaniyatli kishilar mavqeining baland bo‘lishi, o‘z kuchi va bilimiga tayanib yashaydigan sog‘lom mafkuraviy e’tiqodli kadrlarning qadrlanishi, umuman milliy taraqqiyot konsepsiyasidagi tamoyillarning hayotda to‘la amal qilishi kabi omillar ana shunday motiv-mexanizm bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari samaradorligini oshirish bu sohada ko‘zga tashlanayotgan muammolarni bartaraf etishni shartlab qo‘yadi. Zero har bir sohada bo‘lgani kabi g‘oyaviy targ‘ibotda ham ayrim muammo va kamchiliklar yo‘q emas. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu masalaga alohida to‘xtalib, «Bugungi hayot shiddati, voqelar rivoji shu qadar jo‘shqinki, biz ma’naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim va o‘rinli ishlarni amalgalash oshirayotgan bo‘lsak-da, ba’zi o‘rnlarda afsuski, kech qolyapmiz», deb ta’kidlagani bejiz emas.

Shu nuqtai nazardan, milliy g‘oya targ‘ibotining samaradorligiga qanday omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda? Bu muammolarning echimi qanday? G‘oyaviy targ‘ibotda nimalar nazardan chetda qolmoqda? Targ‘ibot-tashviqot ishlariga qanday tarzda yondashgan ma’qul? Bugungi kunda milliy g‘oyani xalqimiz ongi va qalbiga singdirish samaradorligini oshirish uchun yana nimalarga e’tibor berish zarur?

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis to‘qqizinchi sessiyasi ma’ruzasida bayon etgan asosiy vazifa va qoidalarni keng yoritish bo‘yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar Dasturida yuqoridagi savollarga javob tariqasida «Dasturni amalga oshirish bo‘yicha quyiladagan asosiy talablar» bandi kiritilgan. Ushbu bandda dasturni amalga oshiruvchi mutasaddilarga quyidagi talablar qo‘ylgan:

❖ o‘tkazilayotgan tadbirlarni kampaniyaga aylantirmaslik:

⁸ Каримов И.А. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси олий мажлисининг биринчи сессияси иккинчи йигилишида сўзланган нутқ. // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000. Б. - 358.

- ❖ o'qib berish usulidan voz kechish:
- ❖ tabdirlarni "majburiyat"ga aylantirmaslik:
- ❖ odamlar bilan ochiq-oydin va yuzma-yuz muloqatdan qochmaslik

E'tiborlisi shundaki, yuqorida qayd qilingan talablar nafaqat davlat dasturining ijrosida, balki milliy g'oya targ'ibotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan bugungi kunda targ'ibot-tashviqot ishlarida kampaniyabozlikka berilish, mafkurani targ'ib qilish o'rniga uning ta'riflarini «yodlatish», turli tadbirlarga kishilarni majburiy toplash, muammolar haqida ochiq gapirishdan qochish, odamlar bilan yuzma-yuz muloqatga voizlarning tayyorlanib kelmasligi, son ketidan quvib, sifatni unutib qo'yish, targ'ibotda ayrim tushunchalarning o'rinli-o'rinsiz ishlatilishi natijasida ularning qadrsizlanishi kabi muammolar mavjud.

Agar sog'lom axborot muhiti ustuvor bo'lmasa, qisqa vaqtida har qanday davlatning ichki axborot makonidagi siyosiy-ijtimoiy muhit izdan chiqib, «xatar uchoqlari» paydo bo'ladi. Natijada jamiyatda g'alva boshlanadi, rasmiy axborot tarqatish tizimi ishdan chiqadi, rasmiy boshqaruv va uning mafkurasi tanazzulga uchraydi. O'z echimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularning echimini hal qilish bo'yicha davlat amalga oshirgan ishlar haqidagi axborotlar o'z vaqtida xalqqa etib bormaydi. Eng achinlarlisi, «axborot bo'shlig'ini» shakllantirish bilan bir qatorda «jim o'tirish» pozitsiyasi qaror topadi.

Hozirgi vaqtida, nafaqat Respublikamizda, balki butun dunyoda ta'lim sohasi g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot samaradorligini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, oliy ta'limda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat olib boruvchi kadrlar tayyorlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda dunyodagi talabalarning umumiyligi soni 13 mln. dan 82 mln gacha oshgan. Keyingi 30 yil davomida butun dunyoda oliy ta'limga bo'lgan talab 6 baravar ko'paygan va 2025 yilga borib, dunyo bo'yicha 160 mln. talaba bo'lishi kutilmoqda. Bu esa, bir tomonidan, jamiyatda g'oyaviy mafkuraviy ishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash ko'laming kengayayotganini, boshqa tomonidan, ijtimoiy hayotda g'oyaviy ta'lim-tarbiya ahamiyatining ortishi bilan bog'liq talablar kuchayishini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mustaqillik yillari O'zbekistonda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, unda g'oyaviy ta'lim-tarbiya izchil yo'lga qo'yilgani, bu borada qator oliy o'quv yurtlarida "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi va uning bazasida magistratura mutaxassisligi tashkil etilib, ularda zamon talabalariga javob beradigan har jihatdan etuk kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyatga ega.

G'oyaviy-mafkuraviy ishlarni samarali tashkil etishda maktablarning o'rni beqiyos. Chunki olti-etti yoshar bola toki mustaqil shaxs sifatida shakllanib, voyaga

etkuniga qadar bo'lgan hayotini, asosan, maktabda o'tkazadi. Demak, maktab insondagi qadriyatlar, qarashlar intilish, dunyoqarash va maqsadlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktab bilim berish bilan birga, g'oyaviy tarbiya o'chog'i ham bo'lishi lozim. Insondagi vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik xislatlari, komil insonga xos bo'lgan boshqa xususiyatlarning qaror topishi uning shaxs sifatida shakllanish jaryoni bilan bir vaqtida kechsa, bu sifatlar uning uchun doimiy qadriyatga aylanishi mumkin. Shu bois, maktab yoshidagi bolalarni etuk inson qilib tarbiyalashda muallimlarning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi. Bunda har bir o'qituvchi bilim yoki tarbiya beruvchi emas, balki o'qituvchi milliy g'oyalarning targ'ibotchisi sifatida muloqat olib borishi maqsadga muvofiq. Demak, har bir o'qituvchi o'z vazifasini faqat o'quvchiga dars berishdangina iborat deb bilmay, millat ravnaqiga hissa qo'shadigan fuqorolarni tarbiyalayotganini ham doimo e'tiborga tutmog'i lozim.

Axloqsizlik g'oyalarini aksariyat holda tajribasiz yoshlar bilmasdan «evropacha madaniyat» va «erkinlik» sifatida qabul qilib, o'zlari kutmagan holda aldanib qolishlari mumkin.

O'zbekistonda chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi kurashish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Tarixiy xotira tiklanib, Amir Temur davrida shakllantirilgan «kuch-adolatda», «el-yurt ozodligi», «insof va diyonat birligi», «ma'naviyat – kelajak omili» kabi hayotbaxsh g'oyalar, bugungi kunda yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda mustaqil va tahliliy fikrlashni rivojlantirish ishlari tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayni paytda bu jarayon tadrijiy rivojlanishga undaydigan hayotbaxsh g'oyaga va harakatlanish dasturiga ega bo'lishi taqazo etiladi. Mazkur harakat dasturi qo'yidagi jarayonlarni qamrab olishi kerak:

- ❖ tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni «pinhona rivojlanish» davrida aniqlash;
- ❖ millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillarini yanada rivojlanish;
- ❖ internet va xorijiy ommaviy-axborot vositalari orqali kirib kelayotgan turli axborotlarga nisbatan oqilona munosabatni qaror toptirish.
- ❖ yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- ❖ Ta'lim tizimida mafkurani targ'ib etishda o'qituvchi yoshlarning didiga, qadriyat va qarashlariga mos tarzda yondashish talab etiladi. Milliy g'oya targ'ibotiga xizmat qiladigan adabiyotlar yosh avlodning tafakkuri va bilim darajasiga mos holda sodda, ta'sirchan, ommabop tarzda yozilishiga alohida e'tibor berish zarur. Zero,

“Xalqimizning ezgu hayot talablariga javob beradigan, uning tub manfaatlari, orzu-intilishlarini har tomonlama aks ettiradigan milliy g'oya, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizning o'z g'oyasiga aylansa, ularning qalbi va yuragidan chuqur joy olsa, - men ishonaman – ana shunda biz ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta etamiz”.⁹

2. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyamizning “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”¹⁰ deb alohida qayd etilganligi mamlakatimizda inson huquqlariga bo'lgan e'tibor nechog'li ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish muhim mezonlari:

- ❖ milliy-ma'naviy meros va qadriyatlarni hurmat qilish va unga sodiqlik;
- ❖ umuminsoniy demokratik qadriyatlarga sodiqlik;
- ❖ ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish;
- ❖ xalq faronligi darajasi;
- ❖ Vatan ravnaqi, yurt tinchligi;
- ❖ xalqni tinchlik va omonlikda yashashi bilan belgilanadi.

Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish muhim tamoyillari:

- ❖ inson erkinligi, huquq va manfaatlarning ustuvorligi;
- ❖ inson hayotining dahlsizligi;
- ❖ inson sha'ni va qadr-qimmati, uni eng oliy qadriyat ekanligi;
- ❖ qonun ustuvorligi;
- ❖adolat;
- ❖ milliy va umummanfaatlar uyg'unligi;
- ❖ mafkuraviy plyuralizm;
- ❖ fikrlar xilma-xilligi;
- ❖ bag'rikenglik bilan belgilanadi.

Milliy g'oya targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri – mafkura targ'iboti zimdan amalga oshirilishi zarurligidir. Inson unga ta'sir o'tkazilayotganini sezmasligi lozim. Umuman, targ'ibot davomida «mafcura» so'zining ko'p ishlatilishi shart emas. Mafkura fuqaro ongiga zimdan, bilvosita – badiiy va sahma asarlari, filmlar, san'at durdonalari, hayot tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar orqali singdirilishi kerak. Zero har qanday etuk san'at asari milliy

⁹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.:“O'zbekiston”, 2015, B-297-298.

¹⁰ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston. – T.: 2014, 13-modda.

mafcura targ'ibotchisi bo'la oladi. Ma'lumki adabiyot va san'at ulkan mafkuraviy qudratga ega bo'lib, u g'oyalarni badiiy jihatdan boyitib tomoshabin yoki o'quvchini o'z ta'siriga olish qudratiga ega. Aynan badiiy asarlar bugungi kunda mafkuralarni eltuvchi g'oyalarni qit'alararo zimdan tashuvchi vositaga aylangani hech kimga sir emas.

Butun dunyoda bo'layotgan hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tahlilidan kslib chiqib, ularning mafkuraviy-g'oyaviy negizlarini yanada rivojlantirish zarur.

Dunyodagi yovuz niyatli geosiyosiy harakat va kuchlar yoshlarga keng miqyosda g'oyaviy ta'sir ko'rsatish harakatlarini olib bormokda. XX asrga kelib, urushlar olib borishda g'oyaviy ta'sir muhim ahamiyatga ega bo'lib, muayyan davlatni o'z aholisi oldida va xalqaro maydonda obro'sizlantirish uchun qarshi axborot faoliyatlari olib borish, axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish oshkora tusga kira boshladi.

Axborot texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi – jahon axborot makonida misli ko'rilmagan mazmuniy o'zgarishlarga olib keldi. Birinchi jahon urushida qo'llangan informatsion-psixologik ta'sir texnologiyalari, o'z navbatida axborotning texnologik rivojlanishiga asos soldi. Axborot-resurs, boylik va mahsulot sifatida qisqa vaqt ichida misli ko'rilmagan tezkorlik bilan rivojlandi. Axborot-psixologik ta'sirni o'rganuvchi ilmiy markazlar vujudga keldi. Dastlab 1914 yilda Angliyada, 1915 yilda Fransiyada, 1917 yilda AQShda, 1918 yilda Germaniyada maxsus axborot markazlari tashkil etildi.

AQShda esa «Jamoat axborot qo'mitasi» tuzilib, uning rivojlanishiga katta mablag'lar ajratildi, psixolog olimlar jalb qilindi. Bu qo'mitani Prezident V.Vilsonning yaqin o'rtog'i J.Kril boshqardi. Qiska vaqt ichida ushbu qo'mita tomonidan AQSh manfaati singdirilgan 75 mln. donadan ortiq targ'ibot nashrlari tarqatildi. Urush davrida «Jamoat axborot qo'mitasi» tomonidan betaraf davlatlarning va jahon hamjamiyatining diqqat-fikrini AQSh foydasiga yo'naltirish, chalg'itish maqsadida tinimsiz ravishda soxta ma'lumotlar tarqatildi. 1913-1921 yillar davomida Vudro Vilson AQSh prezidenti vazifasini bajarar ekan, axborot-psixologik xurujga, uning texnologiyalariga, ayniqsa axborot-psixologik ta'sir vositalari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edi:

- ❖ Jamoat fikrini shakllantiruvchi va vazifa yuklovchi tizimlar
- ❖ Qaror qabul qilish tizimlari;
- ❖ Axborot-texnik tizimlar;
- ❖ Axborot-analitik tizimlar;
- ❖ Axborot-resurslar;
- ❖ Ommaviy-axborot vositalari va targ'ibotga asoslangan jamoat onggi va fikrini shakllantiruvchi tizimlar.

Yoshlarda immunitet hosil qilinmasa, dezinformatsiyalar, ochiqdan-ochiq bo'hton, soxta faktlarning ta'siriga qarshi kurashib bo'lmaydi. Yoshlarda bilimlilik asosida mustaqil va tahliliy fikrlash jarayonini rivojlantirish lozim. Mustaqil fikrlash jarayoni etarlicha shakllantirilsa, har qanday g'oyaviy ta'sirlar o'z kuchini yo'qotadi. Axborot tahlili haqiqiy holat bilan qiyoslansa, o'z-o'zidan axborotning asl mazmuni namoyon bo'lib, uning tarkibidagi to'qimalar, soxta faktlarni iste'moldai olib tashlash mumkin.

3. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari.

Bugungi dunyo xalqlari hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning tahlilidan kelib chiqib, inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi g'oyaviy targ'ibot va tashviqot samaradorligini ta'minlash yo'llarini muntazam rivojlantirib borish taqazo etilmoqda. Bunda:

- ❖ targ'ibot texnologiyalarida milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini, uning foydali jihatlarini xolisona ko'rsatib berish;
- ❖ ikki va ko'p tomonlama aloqa munosabatlari tizimini shakllantirish;
- ❖ targ'ibot texnologiyalari vositalarini yanada takomilashtirish;
- ❖ milliy g'oya targ'ibotida so'z va amal birligiga erishish;
- ❖ jamoatchilikning qiziqishi, maqsad va intilishlarini hisobga olish;
- ❖ targ'ibotlarning ishonchligini ta'minlash;
- ❖ muammolarni echish yo'llarining asosli bo'lishi.

Zero, dunyoda yovuz niyatli siyosiy harakat va kuchlar yoshlarga qarshi keng ko'lamdag'i tizimli g'oyaviy ta'sir ko'rsatish harakatlarini olib borishmokda. XX asrga kelib, urushlar olib borishda g'oyaviy targ'ibot muhim ahamiyatga ega bo'lib, muayyan davlatni o'z aholisi oldida va xalqaro maydonda obro'sizlantirish uchun mafkuraviy faoliyat olib borish, axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish oshkora tusga kira boshladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishda quyidagi yo'nalishlarda keng ko'lamdag'i ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- ❖ o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma'naviy mulkiga aylantirish, milliy o'zlikni anglatish maqsadini ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, milliy g'oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqr singdirish, uni ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

- ❖ Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarida erishilgan

yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'ururni kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaslik tuyg'usini kamol toptirish;

❖ aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamlakat miqqosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lish hissini uyg'otish;

❖ jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlar, izzat-ehtirom, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jarayonlarini milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tarzda tizimli va uzliksiz targ'ib etib borishni yo'lga qo'yish;

❖ axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarda yuksak ma'naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, boy tarixiy-madaniy merosga asoslangan holda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, xalqimizning azaliy an'ana va urf-odatlariga asoslangan holda jamiyatda o'z o'mini topish, kasb-hunar egallahsga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish;

❖ Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning etakchilik xususiyatlarini namoyon qila olishlari hamda boshqaruv mahorati malakasini hosil qilishlariga keng qamrovli imkoniyatlar ohib berilishini ta'minlash;

❖ yoshlarning ilm-fan sohasidagi faolligini oshirish, ularni ijtimoiyiqitisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jismonan baquvvat bo'lishlari uchun ko'maklashish, ilmiy-ijodiy intilishlarini ro'yobga chiqarish;

❖ yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

❖ "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdidlarning yoshlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik va ularda qat'iyatlilikni kamol toptirish;

❖ yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ'ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirish.

Ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy targ'ibot olib borishning mohiyati va ustuvor yo'nalishlari etib quydagilar belgilanadi:

❖ yuksak rivojlangan, demokratik davlatlar qatorida bo'lishdek oliy maqsadni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlar qabul qilingan qonun hujjalari va davlat dasturlarining ahamiyatini aholining keng qatlamlari orasida jadal targ'ib qilish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish,

odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish, olimlar, siyosatchi va ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish;

❖ mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami dagi buniyodkorlik ishlarning jahon hamjamiyati va dunyo tashkilotlari tomonidan bir ovozdan e'tirof etilganligini keng targ'ib etish;

❖ aholining turli qatlamlari, xususan, yoshlar orasida tarixiy xotiraga, milliy o'zlikka ega bo'lish zaruratini anglatish borasidagi keng ko'lami targ'ibot ishlarni olib borish, milliy ma'naviyatimiz obidalarini asrash, e'zozlash va madaniy merosimizni yoshlar tomonidan maqsadli hamda ongli o'zlashtirilishiga erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

❖ mamlakatimizda inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning samarali mexanizmlarini qo'llash, inson kapitalini rivojlantirish jarayonlarini keng targ'ib etish;

❖ ulug' mutafakkirlarimizning dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissalarini xalqimiz ongi va qalbiga etkazish hamda shu asosda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash;

❖ mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini har tomonlama rag'batlantirib borish, kino, teatr san'atining xalqimiz barcha qatlamlari orasidagi ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;

❖ xalqimizning milliy qadriyatlar, tarixiy obidalariga bo'lgan ehtiromli munosabatni yanada oshirish, ayniqsa yoshlarning muqaddas qadamjolar, ziyyaratgohlar va muzeylarga tashriflarini tashkil etish;

❖ yoshlarning intellektual salohiyati, badiiy-estetik didi va saviyasini uzluksiz yuksaltirib borish maqsadida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, bu borada o'ziga xos musobaqa va tanlovlarni tashkil etish, "Ziyonet" tarmog'ida har bir ta'lim sub'ektining o'z elektron-axborot resurslarini yaratish ishlarni ma'naviy rag'batlantirish;

ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy

ildizlari, noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarni muntazam ravishda olib borish;

❖ oila, mahalla, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim muassasalari va ta'limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta'sirchan usuluslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ'ibot ishlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish;



❖ muqaddas islom dinining ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, imomlarning ma'ruzalarini mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bilan boyitish bo'yicha hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish;

❖ aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana hamda qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ohib berishga yo'naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish;

❖ milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholining barcha qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, an'anaviy hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini tanqidiy ohib berish;

❖ xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy qadriyatlari va hayotiy udumlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;

❖ fuqarolar qalbida erkin tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash, bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli takliflar hamda tavsiyalar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish;

❖ yilning har choragida amalga oshirilgan amaliy faoliyat natijalarini, tahliliy materialarning xulosalarini ommaviy axborot vositalari, jumladan,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat kengashining nashrlari bo'lmish "Tafakkur", "Ma'naviy hayot" va "Jahon adabiyoti" jurnallari, "Ma'naviyat" nashriyoti orqali muntazam chop etib borish, shu bilan birga, har oyda amalga oshirilgan pozitiv o'zgarishlar haqidagi axborotlardan veb-saytlar orqali muntazam ravishda keng jamoatchilikni xabardor etib borish;

❖ ayrim kinostudiylar tomonidan tijorat yo'lida yaratilayotgan saviyasi past va milliy qadriyatlarmiz, urf-odatlarimizga zid bo'lgan filmlar yaratilishining oldini olish maqsadida ta'sirchan vositalarni ishga solish, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

❖ ayrim voyaga etmagan yoshlarning ta'lif jarayonlarini tashlab, norasmiy ravishda ishlash uchun chet ellarga ketishining oldini olish va ular o'rtasida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ota-onalar, vasiylar va keng jamoatchilik ishtirokida tushuntirish ishlarini olib borish;

❖ ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi, ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va joriy qilish.

G'oyaviy ta'sirlarga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarining mazmunini, shakl va uslublarini, muhitning yoshlarga ta'sirini o'rganishda:

❖ g'oyaviy ta'sirlarga qarshi dasturlarni yaratish va amalga oshirishda umumiy tamoyillarga e'tibor qaratishni;

❖ g'oyaviy tarbiya jarayonida tizimli yondoshuvni;

❖ barcha jarayonlarni uzviy bog'lovchi monitoring tizimini yaratishni;

❖ yangi texnologiyalarni jadal qo'llash va tezkorlikda aprobatasiyadan o'tkazishni talab qilmokda.

Ta'kidlash joizki, g'oyaviy targ'ibot-tashviqot samaradorligini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularni amalga oshiruvchi mutaxassislarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarda jamoani o'ziga qaratish, kishilarga ta'sir ko'rsatish, ularni ilhomlantirish targ'ibotchidan juda katta mahorat talab etadi. Shuning uchun, targ'ibotda voizlar o'z ma'ruzalari ta'sirchanligini oshirish choralarini ko'rishi, ularning hayotiy va haqqoniy bo'lishiga erishishi, o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni puxta taylorlashi va zamonaviy texnologiya va vositalarni qo'llashi lozim.

Shuningdek, jamiyatda yoshlarni zararli mafkuralarning salbiy ta'siridan himoyalashda san'atdan foydalanish, milliy g'oyani targ'ib qilishda badiiy obrzlarni qo'llash amaliyoti muhim. Chunki, badiiy obrazlar orqali milliy g'oyani targ'ib qilish, yet mafkuralarga qarshi kurashish samarali va ta'sirchan usul hisoblanadi. Milliy g'oyaning targ'ibotiga sarflangan mablag' qisqa vaqtida moddiy boylik keltirmasligi mumkin, lekin hozirda bu sohani sarf-xarajatiga alohida e'tibor berishi muhim bo'lmoqda. Shuning uchun ham uning samaradorligini muntazam oshirish yo'llari to'g'risida o'yashimiz kerak.

Tayanch tushuncha: samaradorlik, g'oyaviy targ'ibot texnologiyalari samaradorligi, samaradorlik mezonlari, texnologiyalar samaradorligini oshirishning konseptual asoslari, mafkura targ'iboti, mafkuraviy targ'ibot muammolari, milliy g'oyaga ishonch, mafkuraviy e'tiqod, aqidaparastlik, mafkura targ'iboti omillari.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar:

1. Milliy g'oya targ'ibotida samaradorlikka erishishning yangicha texnologiyalardan foydalanishni afzalliklarini tahlil eting.

2. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligiga erishishda ta'lim-tarbiya, oila mahalla, maktabning o'mini qiyosiy tahlil qiling.
3. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini belgilovchi mezonlar va omillarni tahlil eting.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. -T.: —O'zbekistonl, 2013.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
4. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.

4-mavzu. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalari".

REJA:

1. Milliy g'oya targ'iboti va "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning o'zaro munosabati
2. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning demokratik asoslari va zamanoviy ko'rinishlari
3. "Jamoatchilik bilan aloqalar"da jahon tajribasi va targ'ibotda milliy ma'naviy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati

1. Milliy g'oya targ'iboti va "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning o'zaro munosabati

Milliy g'oya targ'ibotida turli xil jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarga amalga oshadi va jamiyat hayotining turli xil sohalari, voqeа va xodisalari bilan o'zviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

"Jamoatchilik bilan aloqalar"ning milliy g'oyaning ijtimoiy hamkorlik va ijtimoiy hamjihatlik g'oyalariga tayanish muhim ahamiyatga ega. "Jamoatchilik bilan

aloqalar”ning maqsadi umummilliy maqsadga yo‘naltirish, safarbar etish hamda o‘zaro hamkorlik va totuvlikni ta’minlashdan iborat.

Dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar har bir insonning iqtidori va salohiyatini jamiyat taraqqiyoti sari yo‘naltirishga undalmoqda, bunda milliy g‘oyani targ‘ib etishda “Jamoatchilik bilan aloqalar”, uning shakllari muhim o‘ringa ega. Jamoalar turli xil bo‘lib, har biri o‘ziga xos jihatlariga ega. Milliy g‘oya targ‘ibotida uni hisobga olgan holda yondashish, kutilgan samarani berishi mumkin. Demak, milliy g‘oyaning targ‘iboti va jamoa o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud. Bunda quyidagi xususiyatlarni hisobga olish milliy g‘oyaning targ‘ibotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- ❖ Jamoaning faoliyat sohasi;
- ❖ Jamoaning sotsial-demografik holati;
- ❖ Milliy tarkibi;
- ❖ Jamoadagi ma’naviy muhit;

❖ Jamoani ijtimoiy hayotda erishgan yutuqlari yoki muammolari; □ Jamoa qadrlaydigan muhim g‘oyalar va maqsadlar.

Yuqoridagi ko‘rinishlar bo‘yicha muayyan bilim va ma’lumotga ega bo‘lish milliy g‘oya targ‘ibotini tashkil etishga yordam beradi. Milliy g‘oya targ‘ibotidan ko‘zlangan maqsadni aniq, ishonchli va ta’sirchan, hayotiy chiqishiga, samarador bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aks holda, kutilgan natijaga erishib bo‘lmashigi mumkin. Shuning uchun ham, O‘zbekiston davlati siyosatining tub mohiyatini odamlarga tushuntirish, ularning bu siyosatni qo‘llab-quvvatlashlariga erishishda foydalaniladigan texnologiyalardan biri “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasıdir.

«Public relations» (PR) «Jamoat bilan aloqalar» targ‘ibotning demokratik usullaridan biri sanaladi. «Jamoat bilan aloqalar» texnologiyalari davlat bilan xalq o‘rtasida muloqot o‘rnatib, fuqarolarda davlat siyosatiga moyillik uyg‘otishga xizmat qiladi. Shu orqali davlatga hamfikr insonlarni ko‘paytirib, ularni ishonchli hamkorga aylantiradi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” insonlar fikrlariga, kayfiyatiga, xissiyotiga va oxir oqibat xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi «ishonch va istaklar strategiyasıdir».

Etakchi davlatlarda bu texnologiyalardan foydalanish mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish industriyasi darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekistonda ham mafkuraviy jarayonlarni tartibga solishda jamoa bilan aloqalar texnologiyalaridan foydalanish milliy g‘oya targ‘ibotining ta’sirchanligini, so‘zsiz, oshiradi.

U boshqaruvning alohida usuli bo‘lib, boshqaruv tuzilmalarining jamiyat manfaatlariga xizmat qilishiga e’tiborni qaratish, amalga oshirilayotgan islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilish, jamiyatda vujudga keladigan noxush holatlardan ogoh



qilish orqali ularning oldini olishga xizmat qiladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” qonuniy, ochiq, samimiy, ahloqiy me'yorlarga mos keladigan muloqotlar asosida amalga oshiriladi.

Qator mamlakatlarning davlat boshqaruvida “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining qo'llanilishi boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan farqli holda, davlat va jamiyat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik usuliga o'tishga xizmat qiladi. Buning natijasida, davlat va jamoatchilik o'rtasida mavjud ko'zga ko'rinas to'siq olib tashlanib, demokratik ruhdagi fuqarolar uchun ochiq, ularning talablariga javob beruvchi, o'zgarishlarga tez moslashuvchan yangicha, samarali ishlaydigan boshqaruvchilar qatlami shakllanadi. Shu bilan birga, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo'llash fuqarolar ongiga demokratik qadriyatlarni samarali singdirishga, ularda vatanzavarlik tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” deganda: “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari davlat organlari va boshqa turdagи tashkilotlarning insonlar, ijtimoiy guruhlar, korxonalar bilan o'zaro tushunish va ishonch muhitini yaratishga yo'naltirilgan faoliyati tushuniladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar”ni ilmiy asosda o'rganilishi ushbu texnologiyalarini qo'llayotgan sub'ektga olib borilayotgan siyosatni qo'llash uslublarini o'zlashtirish imkonini beradi. Quvvatlovchilarni aniqlash, jamoatchilik fikrini o'rganish, sub'ekt uchun ahamiyatli bo'lган axborot oqimlarini boshqarish uslublarini o'zlashtirish imkonini beradi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” milliy g'oyani targ'ib etish va tarqatishning o'ziga xos texnologiyasidir. I.Solovyov tomonidan berilgan ta'rif xam e'tiborga loyiq: “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari axborot texnologiyalarining bir turi bo'lib, biror siyosiy maqsadni amalga oshirishda respondent¹¹ ni hurmat qilgan holda axborot-tahliliy faoliyat yuritishni nazarda tutadi, deb yozadi u. – Ushbu texnologiyalar kommunikator¹² va retsipient o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaratishga xizmat qiladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining xaqiqatga asoslanishi mavjud muammolarni keng jamoatchilik o'rtasida erkin muhokama kilish imkoniyatini beradi va fuqarolarda siyosiy qarorlar qabul qiluvchi markaz hakida ijobiy tasavvur uyg'otadi. Bu texnologiyalar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

- ❖ axborotning xolisligi va oshkorali;
- ❖ o'zaro munosabatlarda ham kommunikatorning, ham retsipientning manfaatlarini xisobga olish;

¹¹ Qarang: Respondent - axborotni qabul qiluvchi.

¹² Qarang: Kommunikator - axborot yetkazuvchi.

- ❖ jamoatchilik fikriga tayanib faoliyat yuritish, jamoatchilik fikrini xurmat qilish;

Axborot etkazish faoliyatining bunday tashkil etilishida kommunikator retsipientga shunchaki axborot qabul qiluvchi deb emas, balki o‘z dunyoqarashiga ega shaxs sifatida murojaat qiladi. Shu sababli, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining ishtirokchilari jamoatchilik fikridan doimo boxabar bo‘lib turadilar».

Olim ushbu muammoga to‘xtalar ekan «Jamoatchilik va aloqalar» texnologiyalari qanday maqsadga yo‘naltirilganligiga qarab uni bir necha turlarga ajratadi.

Masalan, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarning kommunikatorning davlat va jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yaxshilashda (public) shaxsning istalgan qiyofasini yaratishda (image making), ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni mustaxkamlashda (media relations), axborot etkazish va uning auditoriya tomonidan qabul qilishini boshqarishda (massage management) axborot markazlaridan kadrlar bilan ishlashda (emloee communications), jamoatchilik bilan o‘tkaziladigan tekshirishlarda (publik involuement), homiylar bilan yaxshi aloqalarni ta’minalashda (investor relations), tanishtiruvchi tadbirlarni o‘tkazishda (spesial events), inqirozli vaziyatlarni boshqarishda (crisis manegement) va boshqalarda foydalanish mumkin»,¹³ deb e’tirof etadi. U mazkur texnologiyalarning alohida ko‘rinishlarini sanab o‘tadi va ularning har biri o‘ziga xos vazifalarni bajarishini ta’kidlaydi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini bunday qismlarga ajratilishi axborot berish jarayonini boshqarish har bir informatsion loyihalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish standartlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari demokratik davlatlarda mamlakat tomonidan jamoatchilikka axborot etkazishining mazmuniga aylanganligi bois davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari muammosi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan qator olimlar davlat boshqaruvida mazkur texnologiyalarning qo‘llanilishini, avvalo:

- ❖ davlat faoliyati to‘g‘risida fuqarolarga axborat etkazish;
- ❖ siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta’minalash;
- ❖ fuqarolar tomonidan davlat siyosati va dasturlarini qo‘llab-quvvatlashga erishish;

¹³ Каранг: Соловьев А.Н. Политология; политическая теория, политические технологии. - М.: Асек Пресс, 2000, С-518.

❖ davlat tuzilmalarining ijobiy imijini yaratish¹⁴ kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Taniqli psixolog Erix Frommning ta'kidlashicha, kishilarni ko'r-ko'rona ishontirish, ularning dunyoqarashini boshqarish fikridan voz kechib ongli va faol hamkorlik muhitini yaratish zarur¹⁵, bu aynan "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalari mohiyatini tashkil etadi. Shu sababli milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalaridan foydalanish insonning fikr erkinligiga daxl qilmaydi, amalda bu boradagi ishlarimizni yaxlit tizim shakliga keltirishga xizmat qiladi.

2. "Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning demokratik asoslari va zamanoviy ko'rinishlari.

O'zbekistonda "Jamoatchilik bilan aloqalar" o'zining demokratik asoslariga ega. U mamlakatimiz qomusi Konstitutsiyamizda va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar va qonunlar orqali kafolatlab quyilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Davlat hokimiyati organlari faoliyatni ochiqligi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Saylov to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar¹⁶da "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning huquqiy asoslari kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mafkura targ'iboti masalasiga to'xtalib «Biz kishilar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz odamlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish taraforimiz. Har qanday xalqni halq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq ravshan va charog'on etadigan mafkura - milliy g'oyani shakllantirishning asosiy sharti odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqealikka nisbatan ta'sirini inobatga olishdir»¹⁷.

"Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalari targ'ibot tashviqot masalalariga qaratilayotgan ana shunday qat'iy talabga to'la mos keladi.

Chunonchi, "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalarini qo'llanilishida ommaning fikrining boshqarish usulidan voz kechiladi.

Olimlar "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalarini targ'ibotdan keskin farq qilishini ta'kidlaydi. Xususan, F.Teylording fikricha, «Targ'ibot – axborot

¹⁴ Qarang: Solov'yov A.N.Politologiya; politicheskaya teoriya, politicheskie texnologii. - M.: Asnek Press, 2000, S-518.

¹⁵ Qarang: Filipp A. Buari. Pablik rileyshiz ili strategiya doveriya.-M, 2001, S-25-26.

¹⁶ Qarang: Lex.uz.

¹⁷ Qarang: Karimov I.A O'zbekiston kelajagimiz kelajagini o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: «O'zbekiston», 1999 y. 298-b.



etkazishning shunday usuli, unda faqatgina kommunikatorning manfaatlariga mos g'oyalar, mafkuralar, axborot ommaga etkaziladi»¹⁸.

Ulardan eng ko'p qo'llanilayotgani bu - “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasidir. Uning qisqacha mohiyati – jamiyat manfaatlari yo'lida davlat boshqaruvi organlari hamda jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasida muloqot o'rnatish san'atidir. Avvalo bu texnologiyani qo'llashning va uni qabul qilishning mohiyati unga berilgan quyidagi sifatlari darajasi bilan bog'liq:

- ❖ aniq maqsadning qo'yilganligi;
- ❖ sharoitga ijodiy moslashuvchanlik;
- ❖ nazariy va uslubiy jihatdan puxtalik;
- ❖ ortiqcha murakkablashtirishdan xolilik;
- ❖ qo'llashda qulaylik.

Mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqlarning asosiy birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan – milliy g'oyani tub mohiyatini tushuntirish, uni qo'llabquvvatlashlariga erishish, bu jarayonda vujudga keladigan muammolarni hal qilishda jamoatchilikning fikriga tayanish, milliy g'oyani targ'ib etishda aholining manfaati va istaklarini o'rganish, fuqarolarni yot, zararli mafkura va g'oyalar ta'siridan himoyalash vazifalarini amalga oshirishda jamoat bilan aloqalar texnologiyasining o'rni kattadir.

Dunyo bugun rivojlanishning yangicha bosqichiga kirdi. Bu davrda taraqqiyot bilan bir o'rinda, 20-asrning mazmunini ochib bergen “qurollanish xavfi” ancha kamaygan bo'lsa-da, ammo mafkuraviy tazyiq darajasi ancha o'sib bormoqda. Hatto bugun biz ba'zi bir mamlakatlarni uning ta'siriga tushib borayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Aynan ana shunday xavflarning oldini olish va ularning ta'siriga chidab berish qobiliyatiga ega bo'lgan “qalqon” bu – xalqimizning an'ana va tarixini o'zida mujassam etuvchi, uni keljakdagi taraqqiyotini belgilab berish uchun xizmat qiladigan milliy g'oyadir. Ammo, milliy g'oyani mavjudligining o'zi etarli, holat emas. Balki uni bir butun holda mazmunini tushunish, qabul qilishlari, uni asrab-avaylashlari uni xalq va davlat manfaati miqyosida qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. 1922 yilda taniqli sotsiolog P.Sorokin buni isboti sifatida shunday deb yozgan edi: “har qanday jamiyatning taqdiri avvalo, uni a'zolari xususiyatiga bog'liq. Befarq va loqayd odamlardan tashkil topgan jamiyat hech qachon rivojiana olmaydi. Bir guruh shaytonlarga ajoyib konstitutsiyani berib qo'ying, baribir siz ulardan ajoyib jamiyat tuza olmaysiz” deb yozgan edi. Aynan jamoat bilan aloqalar texnologiyasi milliy g'oya targ'ibotida jamoat bilan munosabatlar tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olganda, bugun yoshlarning ongiga milliy g'oya maqsadlarini singdirish, ularni an'analarimiz, tariximiz, umume'tirof etilgan

¹⁸ Qarang: Taylor P.M. mumtions of the mind. History of Propoganda from ancient to present day- Manchester-New York, 1995. P-6

demokratik tamoyillar ruhida tarbiyalash bugungi kunda milliy siyosatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning zamonaviy ko‘rinishlari:

❖ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonlari;

❖ Vazirliklar bilan telefon aloqalari;

❖ Ijtimoiy tarmoqlar (internet, elektorn saydlar);

❖ Siyosiy partiyalarning saylov oldi targ‘iboti jamoatchilik bilan uchrashuvlar;

❖ Elektron axborot;

❖ Elektron xukumat;

❖ Matbuot xizmatlari;

“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning darajasi:

❖ Mahalliy darajadagi muloqatlar;

❖ Respublika darajasidagi muloqatlar;

❖ Mintaqa darajasidagi muloqatlar; □ Global darajadagi muloqatlar.

Milliy g'oya targ'ibotining asosiy maqsadi – avvalo, jamiyat barcha a’zolari, shuningdek, yosh avlodni shu g‘oyaga ishonch va e’tiqod asosida tarbiyalash, ularni turli “mafkuraviy xavflar”dan himoya qilish, davlat va jamiyat manfaatlarini doimo o‘ziga ma’suliyat deb his qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash bugun alohida mazmun kasb etmoqda.

3. “Jamoatchilik bilan aloqalar”da jahon tajribasi va targ‘ibotda milliy ma’naviy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning taqdiri insonning faolligiga bog‘liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. O‘zbekiston hayotidagi o‘zgarishlar insonlar ongida ham kengroq o‘zgarishlar qilishni talab etadi. Hozirgi kunda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas.

Bunday sharoitda begona mafkuraning qo‘poruvchi ta’siriga qarshi doimiy va uzlusiz aksil targ‘ibotni tashkil etish zarur. Chunki, bunday mafkuraviy kurash nafaqat mamlakatimiz ichkarisida balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, demokratik jamiyat barpo etish davlatning fuqorolik jamiyati bilan doimiy aloqaga kirishishini o‘z maqsad va vazifalarni insonga tushuntirib borishini, jamiyatdan kelayotgan talab va takliflar asosida siyosiy qarorlarni qabul qilishni taqazo etadi. Bu esa jamiyatdagি turli kuchlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirishi ular o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish va boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilishning maqbul usullarini joriy etish imkonini beradi.



Yoshlarning u yoki bu darajada o‘z mafkuraviy himoya qobig‘iga ega bo‘lishi, unga g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi kurashish imkonini beradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yoshlarning siyosiy vaziyatni idrok etishida, mushohada va tahlil qilishida g‘oyaviy barqarorlik muhim ahamiyatga ega.

Ezgulikka, fikr sofligiga yo‘naltirilgan bunyodkor g‘oyalalar – yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minalashning mafkuraviy-g‘oyaviy negizlari bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlar o‘zining ongli yashash huquqi uchun, o‘z taqdirini o‘zi belgilash erkinligi, hayotiy ezgu maqsadlarini amalga oshirishi uchun o‘zlari faol bo‘lishlari kerak.

Bunyodkor g‘oyalarning asosiy mohiyati yoshlarning qalbi va ongiga singdirilsa, shaxs tafakkuri turli eskicha aqida va tushunchalardan, turli g‘oyaviy ta’sirlardan xolos bo‘lib, davlat manfaatiga xizmat qiladi. Uning ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Shuningdek, huquqiy demokratik davlat barpo etishda odatda davlat hokimiyat organlari islohotchi vazifasini o‘taydi. Boshqacha qilib aytganda, aynan davlat hokimiyyati organlari islohotlarning yo‘nalishlari ko‘rinishi ularni amalga oshirish bosqichlarini belgilab beradilar. Shu bois davlatning muhim vazifalardan biri islohotlar jarayonida fuqorolar bilan davlat hokimiyyati organlari o‘rtasida erkin axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yishdan iborat .

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarni davlat hokimiyyati organlari faoliyatidan xabardor qilishning turli mexanizmlari mavjud bo‘lib, ulardan eng ko‘p tarqalgan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridir.

Jamoatchilikka muhim axborotlarni o‘z vaqtida etkazish, o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish, jamoatchilikning ishonchini qozonish, demokratik qadriyatlarni singdirish ishlari puxta ishlab chiqilgan reja asosida olib borilishini taqazo etadi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llashda har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan, Evropa mamlakatlarida qo‘llaniladigan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini aynan joriy etib bo‘lmasligi mumkin. Bunda xalqning mentaliteti, xususiyatlari, milliy-madaniy merosi, an’analari, qadriyatlari, siyosiy ong va madaniyati darjasini bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda yondashish muhim. Aks holda, u umume’tirof etilgan demokratik tamoyillarning milliy hususiyatlar bilan bog‘liq ekanligiga ham mos kelmaydi. Shuning uchun, jamoa bilan aloqalar bo‘yicha jahonda katta tajriba to‘plangan bo‘lsa, bu degani, boshqa mamlakatlar uchun “yagona andoza” degani emas. Yoki, aynan unga qarab boshqa mamlakatlarga baho berish to‘g‘ri emas. Targ‘ibot texnologiyalaridan, har bir jamoa, xalq, millat mamlakatning

o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish milliy g'oya targ'iboti maqsadlariga mos keladi hamda demokratik o'zgarishlarga to'g'ri keladi.

Tayanch tushunchalar: Jamoat, «Jamoatchilik bilan aloqalar», «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini demokratik asoslari, milliy g'oya targ'ibotida jamoat bilan aloqalar, milliy xususiyatlar.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar

1. «Jamoatchilik bilan aloqalar» tushunchasini “SWOT - tahlil” eting.
2. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini axborot kommunikatsion tizimdagи o'zgarishlar bilan bog'liq holda “Klaster” usulida taqoslang.
3. Saylov jarayonida «Jamoatchilik bilan aloqalar» ko'rinishlari va uning yo'nalishlarini “Debat” usulida tahlil eting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: —O'zbekiston, 2013.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriristida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
4. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.

5 - Mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.

Reja:

1. Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar.
2. Islom mintaqasi madaniyati rivojida buyuk allomalarimiz merosining ahamiyati.
3. Turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.
4. Oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligini ta'minlash borasidagi ustuvor yo'naliishlari

1. Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar.

O'zbekiston ko'p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakat. Unda yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o'rtasida totuvlikni ta'minlash, bag'rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo'lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan beri o'tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Ayni damda milliy totuvlikni, diniy bag'rikenglikni targ'ib etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy hatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institutsional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlari olib borilmoqda.

2016 yilning 15 iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusida anjuman bo'lib o'tdi. Tadborda O'zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, "Nuroniy" va "Mahalla" jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, islomiy ta'lim muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham ishtirok etib nutq so'zladi. Yuqorida qayd etib o'tilgan masalalarga to'xtar ekan Yurtboshimiz shunday deydi: "Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q". Nega deganda, aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi

va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Yuqorida aytib o'tganimizdek har bir ongli insonni chuqur o'ylantiradigan, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki O'zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Ta'kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda.

Bugun shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni atroflicha tahlil qilib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimizni davr taqozo etmoqda. Ona vatanimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat bo'lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Yurtimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o'ynamoqda. Ana shu markazlar faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida yaqinda muhim bir qaror qabul qilindi. Unga binoan Respublika baynalmilal markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligini ta'minlash, turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. Ularning huquqiy maqomi yaratildi. Uzoq yillar davomida amal qilib qilib kelgan turli taqiqlar olib tashlandi. Muqaddas dinimiz qadriyatları tiklandi, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish bo'yicha juda ko'p ish qilindi va qilinmoqda.

Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak mustabid tizim davrida bu muqaddas qadamjolar, maskanlar oyoqosti qilindi. Ularning milliy va diniy tuyg'ulari qo'pol ravishda kamsitildi, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatildi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib

bordi. Xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan, noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan mustabid tuzum o'zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlashga harakat qilar edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navro'z, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi ko'plab muqaddas milliy bayramlar taqiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Ahmad al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulkholiq G'ijduvoniy kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi¹⁹. Agar sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Yiliga sanoqli kishilargina haj qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 7200 nafar fuqarolarimiz muborak haj safarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar²⁰.

2. Islom mintaqqa madaniyati rivojida buyuk allomalarimiz merosining ahamiyati.

Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu zaminda tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda, ilohiy ta'limotni ham olamga yoygan yetuk allomalar yashab o'tgan. Diyorumizda islom ta'limoti va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha 3000 dan ortiq ilmi-ulamolar faoliyat ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir. Shulardan 1000ga yaqini Samarqandda, 600 tadan ko'prog'i Buxoroda, 300tasi Nasafda va qolganlari boshqa shaharlarda bo'lgan. Al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, at-Termizi, az-Zamahshariy, Motrudiy, Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband kabi o'nlab allomalar islomiy-diniy ilmlar peshvolari sanaladi. Ular tafsir, hadis, fiqh, kalom kabi islomiy ilmlarning rivojiga asos solgan bo'lib, yurtimiz dovrug'ini Mashriq dunyosi bo'ylab taratganlar. Ular diniy ilmlarga, ma'rifikatga o'zining butun hayotini bag'ishlaganla. Markaziy Osiyolik ilm ahllari Imom al-Buxoriy «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-Adab al mufrad» («Adab durdonalari»); Abu Mansur al-Motrudiy «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob»), «Ta'vilot ahli as-sunna» («Sunniylik an'analari sharhi»); Zamahshariy «Kashshof» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»); Abu Iso Termizi «Sunani Termizi»; Marg'inoniy «Hidoya» asarlari bilan

¹⁹ Qarang: Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-tom.

²⁰ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi:// Xalq so'zi. 2017 yil 16 iyun.

Islomning rivojlanishiga, musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhim, islam dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qilindi. Bu "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiorining amaliy hayotda namoyon bo'lishining o'ziga xos isbotidir.

3. Turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.

Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji milliy-ma'naviy havfsizlik borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishimizni, davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimizni taqozo qilmoqda. Masalaning bu jihatiga e'tibor qaratar ekan Sh.M.Mirziyoev shunday ta'kidlagan edi: "Chunki hozirgi vaqtida dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda"²¹.

Yaqin va uzoq horijda mana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoit ro'y berayotgan ekan, bunday sharoitda biz qanday yo'l tutishimiz, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlashimiz, barqaror rivojlanishni nimalar hisobiga ta'minlashimiz mumkin, degan savollarga jiddiy bosh qotirishimiz talab etiladi.

Keyingi paytlarda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlaridan ko'zlanayotgan maqsadlarning insoniylikka zidligi, reallikdan butunlay xoliligi, asl maqadning sirligi, ayniqsa bunday ijrochilari qatorida O'zbekiston fuqarolarining ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda. Tinchlikni, osoyishtalikni, insoniylikni, yaratuvchanlikni, sabrlilikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz bunday shaxslarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Xavotirli tomoni bunday razil kuchlar o'z saflarini to'ldirishda davom etishmoqda. Shunday ekan hozirgi vaqtida yoshlarimizni, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimizni bunday tusdag'i turli-

²¹ Каранг: Мирзиёев III.М.

tuman terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz ta'lim-tarbiyada, targ'ibot ishlarida qanday choralarini amalga oshirishimiz talab etilmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston hukumati qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda yechishdan iborat. Qisqa muddatda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Turkmaniston va Qozog'iston Respublikasiga ikki marta tashrif bilan bordi. Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga samarali tashriflar amalga oshirildi. Bunday tashriflarda asosiy masalalar sifatida o'zaro hamkorlikni, savdo-sotiqni yanada kuchaytirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash, turli tahdidlarga birgalikda kurashish keng muhokama etildi. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan O'zbekiston ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkasi ikkala mamlakat o'rtasida hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Fuqarolarimizning bu mamlakatda halol mehnat qilishi, qonuniy yo'l bilan daromad topishi uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Yoshlarimizni yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanishlarini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya tizimida, targ'ibot tizimida tegishli vazifalarni belgilab olishimiz talab etiladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'iomlashtirish, yoshlarda ogohlilik va g'oyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Anjumanda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi".

Uchinchidan, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yuz berayotgan turli mazmundagi ekstremistik kayfiyatdagি kuchlarga nisbatan "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida kurashishni amaliyatda keng qo'llash, uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga to'htalar ekan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev shunday ta'kidlaydi: "Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli

oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi". Yoshlarni bunday tusdagi turli mafkuraviy kuchlar ta'siridan himoyalashning turli xil usul va vositalari keng tahlil etildi. Lekin erishilayotgan samarani ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mazkur anjumandagi nutqidagi bu tizimni yanada takomillashtirishning yangicha yo'l-yo'riqlarini ilgari surdi. Avvalo bu tizimning institutsional qurilmasi faoliyatini takomillashtirishga, yoshlar tarbiyasida oila, mahalla, maktab, diniy idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratib o'tdi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda har bir institutning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, undan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, jamiyatdagi ma'naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta'sirlarga qarshi aksiltarg'ibot tadbirlarini olib borishning yangicha, ta'sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Avvalo jamiyat ma'naviy hayotining har qanday jabhasida bo'ladigan sodir bo'ladigan noxush hodisaga nisbatan umumjamiyat miqyosidagi salbiy kemtik sifatida qarash talab etiladi. Unga qarshi kurashni umumnniki sifatida baholash zarur. Bunday hodisa jamiyatda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan takomillashtirishni talab etadi. Binobarin "Bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz". Muammoga bunday yangicha usulda yondashuvning sababi nimada? Agar biz jamiyatda o'ziga sherik, safdosh izlayotgan qator diniy-ekstremistik ruhdagi tajovuzkor guruhlar targ'ibot usullariga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular asosan moddiy jihatdan qiynalgan aholi qatlamlariga, ishsiz yurgan yoshlarga, turli jinoyatlari uchun qamalganlarning oila a'zolariga keng e'tibor qaratishadi. Shunday ekan bunday harakatlarni amalga oshirgan, turli sabablar bilan noto'g'ri yo'lga kirib adashganlarga, nafaqat ularga balki ularning yaqin oila a'zolariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish lozim. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz bu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt kelganiga e'tibor qaratib ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", degan fikrlarini keltirib o'tgan. "Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman". Uning amaliy

natijasi sifatida hozirgi kunda qancha adashganlarning gunohi kechirilib, to‘g‘ri yo‘lga solindi. Ularning bir qismi o‘qishga, bir qismi ishga joylashtirildi.

Oila-mahalla-ta’lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligini ta’minalash borasidagi ustuvor yo‘nalishlari

Shuningdek Sh.M.Mirziyoev 2017 yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligiga jamoatchilik e’tiborini qaratdi. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shuning uchun ham birinchi navbatda, oila, ta’lim, mahalla, nodavlat tashkilotlari o‘z faoliyatlarida yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash vazifalariga alohida e’tibor qaratishlari talab etiladi.

Avvalo ular o‘z faoliyatlarini tegishli vazifalar atrofida muvofiqlashtirib olishlari talab etiladi. Negaki yoshlарimizning kundalik faoliyatлari aynan shu maskan va hududlarda kechади. Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliv o‘quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Bironta o‘quvchi yoki talaba sababsiz o‘qishga kelmasa ta’lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu to‘g‘rida bosh qotirishi lozim. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o‘zaro bog‘liqlikda ishlaydigan bo‘lsagina vaziyatni qo‘lga olib, uni ijobjiy tomonga o‘zgartirishga imkon yaratiladi. Malakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlар oid davlat siyosatini ta’minalashning ustuvor jihatlaridan biri sifatida tumanlarda hokimlar hamda ichki ishlar bo‘limi boshliqlarining yoshlар bilan ishlash bo‘yicha o‘rnbosari lavozimi tashkil etildi.

Albatta bu masalalarining yechimi xususida “Nuroniy”, “Mahalla” jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Yoshdar ittifoqi” harakati, ichki ishlar idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bevosita javobgar bo‘lib, ish samaradorligini tubdan oshirishlari, mutlaqo yangi tizimga o‘tishlari, o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishlari zarur.

Bu boradagi eng muhim vazifalar haqida gapirganda Sh.Mirziyoev quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tishni ta’kidlaydi.

Birinchidan, yo‘ldan adashgan, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o‘rganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallashib ketganining turli ijtimoiy sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim.

Bu guruhdagi yoshlар qanday bosim ostida qolishganligi sabablar, tahlillari, olingan natijalar bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo‘llash uchun

aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqishn muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz shu yo'nalishdagi profilaktik ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Ikkinchidan, turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish xususida gap borar ekan uning ijrosini ta'minlash uchun ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar va huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli xodimlari uchun malaka oshirish o'quvlarini tashkil etish kerak. Bu o'quv kurslarida ularni diniy ekstremistik va terrorchi guruahlarning ish usuli, g'arazli g'oya va maqsadlari, kurash, targ'ibot vositalari bilan tanishtirib borish zarur. Adashgan shaxslar bilan ishlaydigan mutaxassis, u mahalla maslahatchisi, imom-xatib yoki profilaktika inspektori bo'ladimi, avvalo buzg'unchi kuchlar qanday g'oyalarni ilgari surayotganini bilishi kerak. Shuningdek sanab o'tilgan maskanlar, tashkilotlar faoliyatini muvrfiqlashtirish masalasini ham hal etish lozim bo'ladi.

Uchinchidan, hokimlarning yoshlar bilan ishlashbo'limlari xodimlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar, shuningdek, xotin-qizlar bo'yicha o'rinnbosarlari turli soxta va'dalar, havoyi gaplar ortidan ergashgan fuqarolarimiz bilan suhbat o'tkazishlari, tashvish va muammolari bilan shu-ullanishlari lozim. Ularni ishga joylashtirish, kasbga yo'naltirish kechiktirib bo'lmas vazifadir. Aks holda ularning bekor qolishlari, nazoratsiz qolishlari, o'z holiga tashlab qo'yilishi chetda payt poylab turgan qabih kuchlarga qo'l kelishi hech gapmas. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a'zolarining farzandlarini jamoat ishlariga, dunyoviy turmush tarziga, xususan, fan va kasb-hunar to'garaklari, san'at festivallari, sport musobaqalariga jalb qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Buni albatta qoniqarli deb bo'lmaydi".

To'tinchidan, Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurligini ta'lim-tarbiya jarayonida doimo yodda tutish talab etiladi. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak". Negaki bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, salohiyat asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lish dolzarb muammodir. Qolaversa, fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga,

sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. G'oyaviy taxdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda turli mazmundagi tahdidlarga, axborot havfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim.

To'rtinchidan, yoshlarning turli yovuz kuchlar iskanjasiga tushib qolish holatlari yuz berganida mazkur holat uchun joylardagi mahalla raisi, maslahatchilar, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar, uchastka inspektori va imom-xatibning mas'uliyati va javobgarligini oshirish talab etiladi. Qolaversa har bir uyushmaning yillik faoliyati baholanganida, reytingi aniqlanganida ushbu holatlar inobatga olinishi zarur.

Kuni kecha Imom Buxoriy bobomiz yodgorlik majmuasida bo'lganimda bu masalaning naqadar muhim va dolzarb ekanini ayniqsa chuqur his etdim. Ayni vaqtida O'zbekiston musulmonlari idorasi faoliyati samaradorligini oshirish, uning tasarrufidagi tashkilotlar va imom-xatiblarga qulayliklar yaratish uchun quyidagi masalalarni ko'rib chiqishimiz zarur, deb o'ylayman.

Birinchidan, O'zbekiston musulmonlari idorasi va uning tizimidagi masjid va ta'lim muassasalarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritishini inobatga olib, ular tomonidan to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning miqdorini qayta ko'rib chiqishimiz zarur.

Ikkinchidan, O'zbekiston musulmonlari idorasining Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy majmuasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan imom-xatiblar malakasini oshirish o'quv markazining faoliyatini kuchaytirish, uning ilmiy salohiyatini, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishimiz va amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, mamlakatimizda ma'rifiy yo'nalishdagi nashrlarga berilgan imtiyozlarni O'zbekiston musulmonlari idorasining "Hidoyat" jurnali va "Islom nuri" gazetasi hamda diniy-ma'rifiy nashrlar uchun ham joriy etib, ularga ham soliq va majburiy ijtimoiy to'ovlar bo'yicha belgilangan imtiyozlar berish adolatdan bo'ladi, deb o'ylayman.

To'rtinchidan, "O'zbekiston" telekanali orqali beriladigan "Hidoyat sari" ma'rifiy dasturi va "Ziyo" studiyasi ko'rsatuvlarini, o'ylaymanki, yurtimizda ko'pchilik katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Ana shu ko'rsatuvlar ijodkorlarining samarali mehnatini inobatga olib, ularni bundan buyon ham qo'llab-quvvatlaymiz.

Tayanch so'z va tushunchalar: globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta'lif, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifikat, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy bo'shliq, diniy bag'rikenglik.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar

1. Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
2. Islom mintaqasi madaniyati rivojida buyuk allomalarimiz merosini nimalarda ko'rishimiz mumkin?
3. Turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalari.
4. Qaysi ustivor yo'naliishlar oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligini ta'minlash borasidagi masalalarga qaratilgan?

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. -T.: —O'zbekiston, 2013.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriristida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
4. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy yo'riqnomalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar tarix ta'limining turli normativ-huquqiy hujjatlari, tarix o'qituvchisining faoliyat funksiyalari: (*gnostik, loyihalash, konstruksiyalash, diagnostik, prognostik, kommunikativ, ishlab chiqarish-texnologik, tashkilotchilik*) va tarix ta'limi sohasidagi innovasiyalar bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovations texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlarga bo'lib o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy va xorijiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, internet materiallaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

1-AMALIY MASHG'ULOT: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlar.

Ishning maqsadi: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud masalalar.

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharhlab bering:

- Milliy g'oya konsepsiysi....
- Milliy g'oya targ'iboti institutsional tizimi
- G'oyaviy bo'shliq
- Milliy ma'naviy meros
- Fanlararo yondashuv
- Tarixiy xotira

2-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Milliy g'oyaning mazmun mohiyatini, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va rolini qanday baholaysiz?
2. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda innovatsiya tushunchasi va uning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
3. Milliy g'oya konsepsiyasining mazxumun mohiyatini yoriting?
4. Dunyoning mafkuraviy manzarasiga baho bering
5. Ma'naviy-ma'rifiy ashlar samaradorligini oshirishga qaratilgan Prezident qarorlaridagi ustuvor vazifalar?
6. Oliy ta'lim tizimida milliy g'oya turkumidagi fanlarni modernizasiyalash masalalari haqida fikringizni bayon eting.

3-ilova

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: —O'zbekiston, 2013.
9. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.



10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'limgoh sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil

11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

2-AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY G'OYA TARG'IBOTI TEXNOLOGIYALARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK USLUBLAR

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarining shakllanishi, mazkur sohalar bo'yicha olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya, xalqimizning milliy urf-olatlari, an'ana va qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy merosini asrash, manba xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari.

1-ilova

Blis-so'rov: "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida zamonaviy texnologik uslublar"

Yakka baho	Yakka xato	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
					zamonaviy texnologik usullar	
					yangi texnologik uslub sohalari	
					mehnat tarbiyasi	
					siyosiy tarbiya	
					axloqiy tarbiya	
					noan'anaviy usullar	
					yangi texnologiyalardan foydalanish usullari	

2-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Zamonaviy texnologik uslublarni "Klaster" usulidan foydalanib tahrir

qiling.

2. Milliy g'oya targ'ibotida an'anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni guruhlarga bo'linib afzal va cheklangan tomonlarini ko'rsating.
3. Yot va zararli g'oyalar ta'siriga tushgan ayrim yoshlarni milliy g'oya targ'ibot texnologiyalaridan foydalangan holda ularning milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodini oshirish yo'llarini asoslang.
4. Zamonaviy texnologik uslublar yo'nalishlari
5. Milliy g'oya targ'ibotida an'anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni guruhlarga bo'linib afzal va cheklangan tomonlarini ko'rsating.

3-ilova

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'anviyat", 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'anviy xavsizliklik. –T.: —O'zbekiston, 2013.
9. Ma'anviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'anviyat, 2009.
10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil

11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

3-AMALIY MASHG'ULOT: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligiga erishish yo'llari.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari. Jamiyat hayotida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratish. Yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillarini yanada rivojlantirish.

1-ilova

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorlining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari
3. Yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari
4. Ma'naviy-ahloqiy normalari haqidagi masalalari
5. Milliy g'oyani targ'ib qilishning ilmiy-nazariy qarashlari

2-ilova

B./ B. /B metodi

Nº	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1.	Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorlining o'ziga xos xususiyatlari			
2.	Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari			

3.	Yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni - mafkuraviyimmunitetni shakllantirish masalalari			
4.	Ma'naviy-ahloqiy normalari haqidagi masalalari			
5.	Milliy g'oyani targ'ib qilishning ilmiy-nazariy qarashlari			

3-ilova

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: —O‘zbekiston, 2013.
9. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o‘qitish. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil

11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

4-AMALIY MASHG'ULOT: Milliy g'oya targ'ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalari”.

Ishning maqsadi: Milliy g'oya targ'iboti va jamoa bilan aloqalarning o'zaro munosabati. Milliy g'oya targ'ibotida jamoa bilan aloqalarning demokratik asoslari. Jamoa bilan aloqalarda jahon tajribasi va targ'ibotda milliy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati. Jamoani ijtimoiy hayotda erishgan yutuqlari yoki muammolari. Jamoa bilan aloqalar texnologiyalari

1-ilova

«Tushunchalar tahlili» uslubidagi tarqatma metariallar.

Tushunchalar	Mazmuni
samaradorlik	
g'oyaviy targ'ibot texnologiyalari samaradorligi	
samaradorlik mezonlari	
texnologiyalar samaradorligini oshirishning konseptual asoslari, mafkura targ'iboti	
mafkuraviy targ'ibot muammolari	
milliy g'oyaga ishonch	
mafkuraviy e'tiqod	
aqidaparastlik	
mafcura targ'iboti omillari	

2-ilova

Nazorat savollari:

1. «Jamoatchilik bilan aloqalar» tushunchasini “SWOT - tahlil” eting.
2. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini axborot kommunikatsion tizimdagи o'zgarishlar bilan bog'liq holda “Klaster” usulida taqoslang.
3. Saylov jarayonida «Jamoatchilik bilan aloqalar» ko'rinishlari va uning

yo'nalishlarini

"Debat"

usulida

tahlil

eting.

3-ilova

Adabiyotlar:

- a. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: —O'zbekiston, 2013.
9. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

5-AMALIY MASHG'ULOT: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari

Ishning maqsadi: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahallaning o'rni. Ta'lim tarbiya jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalarining ahamiyati. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharhlab bering:

1. Globallashuv
2. Ommaviy axborot vositalari
3. Shaxs
4. Ta'lim
5. Tarbiya
6. Ma'naviyat
7. Ma'rifat
8. Mafkuraviy immunitet
9. Mafkuraviy bo'shliq
10. Diniy bag'rikenglik

2-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
2. Islom mintaqasi madaniyati rivojida buyuk allomalarimiz merosini nimalarda ko'rishimiz mumkin?
3. Turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalari.
4. Qaysi ustivor yo'naliishlar oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligini ta'minlash borasidagi masalalarga qaratilgan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.



5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: —O'zbekiston, 2013.
9. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 y.

6-AMALIY MASHG'ULOT: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.

Ishning maqsadi: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. Ta'lim samarasi yuqoriq bo'lishiga sabab bo'luvchi metodlar va vositalar. Noan'anaviy ta'lim usullari.

1-ilova

Quyidagilarni sharhlab bering:

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati
- Innovatsion metodlar
- An'anaviy ta'lim usullari
- Noan'anaviy ta'lim usullari....
- Noan'anaviy va an'anaviy ta'lim vositalari....

2-ilova

«Tushunchalar tahlili» uslubidagi tarqatma metariallar.

Tushunchalar	Mazmuni
An'anaviy ta'lim	

Noan'anaviy ta'lif	
Innovatsiya	
Milliy o'zlikni anglash	
Mustamlaka boshqaruvi	
Milliy ozodlik harakatlari	
intellektual-madaniy meros	

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
8. Otamurodov C. Globallashuv va milliy ma’naviy xavsizliklik. –T.: —O‘zbekiston, 2013.
9. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Q. Nazarov tahririostida. -T.: Ma’naviyat, 2009.
10. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o‘qitish. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar.// —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil
11. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov., Milliy g’oya targ’iboti texnologiyalari. O‘quv qo’llanma. Toshkent -2019 y.



V. KEYSLAR BANKI

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

METOD BOSQICHLARI



1-keys. Tarix fanida hajm, uzunlik va og'irlilik o'lchov birliklarini taqoslashda keys stadi texnologiyasidan foydalanishning mohiyati nimada?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija
Hajm, uzunlik va og'irlilik o'lchov birliklarini taqoslashda keys stadi texnologiyasidan foydalanishning farqi nimada?	Taqoslashda o'quvchi bitta yo'nalishda yechimini topadi. Keys stadi texnologiyasi bir nechta yechim yo'llari aniqlanib optimal yechim tanlanadi.	Keys stadi texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

2-keys. Tarix fani darslarida an'anaviy va noananaviy ta'lim texnolgiyalari afzallik yoki kamchiliklari. Siz fikringiz?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija
Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda ananaviy va noananaviy ta'lim texnolgiyalari afzallik yoki kamchiliklari	An'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan	Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida o'quvchi shaxsi

	<p>o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lif vositalarining majmuidan foydalanib ta'lif-tarbiya maqsadiga erishishdir.</p> <p>Noan'anaviy ta'lif texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lif jarayoni markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lif-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.</p>
--	--

3-keys topshirig'i: Novatsiya va innovatsiya o'rtasidagi farqlarni toping. **Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:**

Asosiy farqlar

Novatsiya	Innovatsiya

O'qituvchining javobi:

Asosiy farqlar

Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) amaliyatda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

4-keys. Dars jarayoningizda fanningizga taaluqli bo'lgan 3D animatsiya yoki simulyatoridan foydalanmoqchisiz, lekin uni yaratishni bilmaysiz. Nima qilgan bo'lar edingiz?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija
Dars jarayoningizda faningizga taaluqli bo'lgan 3D animatsiya yoki simulyatoridan foydalanmoqchisiz, lekin uni yaratishni bilmaysiz. Nima qilgan bo'lar edingiz?	<ol style="list-style-type: none"> Brao'zerni ishga tushiring. Qidiruv tizimlaridan biror birining URL manzili(www.google.uz)ni brao'zerning manzil satriga yozing Qidiruv tizimiga ishga tushgandan so'ng qidiruv so'zi maydoniga 3D animatsiyalar deb yozib animatsiyalarni yuklab oling. Qidiruv so'zi maydoniga Simulations deb yozib simulyator dasturlarni yuklab oling. 	Internet tarmog'idagi virtual ta'lim texnologiyalari bilan ishlash o'rnaniladi

5-keys. Tarix fanida an'anaviy ta'lim metodi hamda innovotsion ta'lim metodlaridan foydalanishning afzallliklari va kamchiliklari

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija
Ananviy ta'lim metodi hamda innovotsion ta'lim metodlaridan foydalanishning afzallliklari va kamchiliklari	<p>An'anaviy ta'lim afzallliklari:</p> <ol style="list-style-type: none"> Aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilish Vaqtdan unumli foydalanish Aniq ilmiy bilimlarga tayanish 	<p>Inovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:</p> <ol style="list-style-type: none"> O'quvchilarning mashg'ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishi, hamkorlik yuzaga kelishi; O'qituvchining

	<p>Kamchiliklari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'quvchilarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining pastligi 2. Darsning bir xil qolipdaligi, bir xilligi 3. O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi 4. O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi 5. Eslab qolish darajasi hammada teng bo'limganligi sababli guruhda o'zlashtirish past bo'lishi mumkin 6. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishi susayadi 7. Tassavurlarni o'zgarmasdan qolishi <p>Innovatsion ta'lim metodi afzalliklari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi 2. O'quvchilarning mashg'ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi 3. O'qituvchining nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltiradi 4. O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishadi 	<p>nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirishi</p> <p>4. O'qituvchi va o'quvchi vaqtidan to'g'ri unumli foydalanishi</p> <p>5. Barcha oliy o'quv yurtlar adabiyotlar bilan ta'minlanadi va ular asosida bilim olish imkoniyati yaratiladi</p> <p>6. Kompyuter yordamida dars jarayoni davomida nazariyani amaliyatga bog'lab olib borishiga sharoit yaratilishi;</p> <p>7. Yangi mavzuning keng xajmda o'rganilishi va o'zlashtirish samaradorligining oshishi</p> <p>8. Axborotning tez-tez yangilanib turishi</p> <p>9. O'quvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmuali tekshirib ko'rishi imkon mavjudligi</p> <p>10. O'quvchilarning faolligi oshib, geometriya kursiga, ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishining kuchayishi</p> <p>11. Amaliy ish topshiriqlariini ilmiy-amaliy tekshirib ko'rishi va vazifani bajarishga ijodiy</p>
--	---	--

	<p>5. O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'zini baho berish, tanqidiy qarashi rivojlanadi</p> <p>6. Guruhlarda jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasi shakllanadi</p> <p>7. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishiga yordam beradi</p> <p>8. O'zaro axborot berish, olish, qayta ishslash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi</p> <p>9. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.</p> <p>Kamchiliklari:</p> <p>1. Ko'p vaqt sarflanishi</p> <p>2. O'quvchilarni doimo ham keraklicha nazorat kilish imkoniyati past bo'ladi</p> <p>3. Murakkab mazmundagi materiallar o'rganilganda ham o'qituvchining roli past bo'lib qoladi</p>	<p>yondashishi</p> <p>12. O'quvchining o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi, ilmiy izlanishi va ijodiy yondashishi.</p> <p>13. Guruhlarda jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasining shakllanishi</p> <p>14. Bilimi past o'quvchilarning bilimdon o'quvchilarga ergashishi</p> <p>15. O'qituvchining o'zining ham fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish, hozirjavob bo'lish ega bo'lishni talab etishi</p> <p>16. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishiga yordam berishi</p>
--	--	--

6-keys. Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'rildi. Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning ob'ektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi: Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
-------	----------

Pedagogning innovatsion faoliyati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yangiliklardan izchil xabardor bo'lish. 2. O'z fani bo'yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik. 3. O'zlashtirgan yoki o'zi asoslangan yangiliklarni amaliyatga tadbiq etishda qat'iyatlilik ko'rsatish. 4. O'z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo'llash
-----------------------------------	---

7-keys. Ta'lif innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo'lsa, u ta'lif innovatsiyalarini o'z faoliyatida shunchalik faol qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi: Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion salohiyati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yangicha fikrlash qobiliyatiga egaligi. 2. O'zini turli, ayniqsa, yangiliklar bilan bog'liq vaziyatlarda sinab ko'rishga intilishi. 3. Ijodiy faollik ko'rsata olishi. 4. Izchil ravishda innovatsion g'oyalarni ilgari surish mahoratiga egaligi

VI. GLOSSARIY

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari - tashkilot, korxona, davlat muassasalari haqida kishilarda ijobjiy tassavvur tug‘dirish, ularning faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida jamoatchilik fikrini shakllantirish.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo‘llash vazifalari - davlat faoliyati to‘g‘risida fuqarolarga axborot yetkazish; siyosiy jarayonlarda fuqarolarning faol ishtiroklarini ta‘minlash; fuqarolar tomonidan siyosatchilar va davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlanishiga erishish; davlat tuzilmalarining ijobjiy imijini yaratish.

Qat’iy belgilangan texnologiyalar – qo‘llaniladigan uslub va vositalar qat’iy belgilangan hamda asosiy ko‘rsatkichlar o‘zgarmas hisoblanadigan texnologiyalar.

Axborot texnologiyalari – axborot yaratish, uni qayd qilish, qayta ishslash va tarqatish usullari bo‘lib, axborot resurslaridan foydalanish jarayonining murakkabligi darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Badiiy g‘oyalari esa jamiyatda mavjud adabiy, badiiy asarlar, teatr va san‘at asarlarini o‘rganish, ularning mazmun va mohiyatini chaqish orqali shakllanib, inson va jamiyatning taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga, ularning madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati darajalarini o‘stirishga inson ruhiyatini yanada mukammal qilishga xizmat etuvchi g‘oyalardir.

Bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalari insoniyatni ezgulik, yaxshilik sari chorlab, yurtni, Vatanni ozod va obod qilish, jamiyat xalqining to‘q va to‘kin turmushini ta‘minlash, insoniyatni ijtimoiy taraqqiyotining past pog‘onasidan yuqorisiga ko‘tarilishini, kishilarda tashabbus, yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlariga yo‘llovchi g‘oyadir.

Vayronkorlik va tajovuzkorlik g‘oyalari insoniyatni karamlik, qullikda saqlash, xalqlarni bir-biriga qarshi qo‘yib, ular orasida millatchilik kayfiyatlarini shakllantirib, birodarkush urushlar uyushtirib, ikki tomondan ham o‘z manfaatlarini topishga intiluvchi, shuningdek qachon va qayerda bulsa-da, urush va milliy mojarolar bo‘lib turishidan manfaatdorlikni yoqlovchi g‘oyadir. Albatta, bu jarayonda ommaning ham katta va belgilovchi o‘rni bor. Agar tarix o‘z tabiiy oqimi rivojiga qo‘yilsa, omma o‘zini har qanday yaxshi yoki muvaffaqiyatli taraqqiyotga yo‘llovchi sarkorni yetishtirib beradi.

G‘oya – Inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan, kuchli teran fikr. Inson ongingin mahsuli sifatida g‘oyalari tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. G‘oyalari garchi tafakkurda paydo bo‘lsa-da, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto g‘ayrishuuriy qatlamlarga singib boradi. Faqat yuksak joziba kuchiga ega bo‘lgan, haqiqatga yaqin g‘oyalargina jamiyatda keng tarqaladi.

G'oyaviy bo'shliq - muayyan sharoitda jamiyat, undagi toifa aa qatlamlarning ongida sodir bo'ladigan g'oyasizlik, mafkuraviy vakuum qolati. Muayyan ahidalar, fikr va g'oyalar zamon tanqidiga uchraganda yoki yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar tomonidan inkor etilganda, davr talabiga javob beradigan g'oya va mafkura to'la shakllanib ulgurmagan hollarda jamiyatda G'.b. vujudga keladi. G'.b.ning yuzaga kelishi chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-psixologik muammo va jarayonlar bilan bog'liq. Odatda yangi g'oyalar turlicha ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

G'oyaviy ziddiyat - turli manfaat, maqsad va intilishlarni ifodalovchi g'oyalalar va ularga tayanadigan kuch-harakatlar o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatni ifodalovchi tushuncha. Bunday ziddiyatning zamirida talab-ehtiyojlar, maqsad-muddaolar, ularni qondirish usullari, yo'llari va vositalarining har xilligi yotadi. Ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari b-n bosqinchilik, tajovuzkorlik va mustabidlik g'oyalari o'rtasidagi kurash buning yorqin misolidir. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning qarama-qarshisi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi.

G'oyaviy qaramlik – millat, jamiyatning o'z manfaatlari va maqsad lariga mos kelmaydigan, unga zid bo'lgan g'oyaviy ohimlarga bog'liqligi, yet va begona g'oyalarga bo'ysinishini xarakterlovchi holat. G'.q. g'oyasizlik, g'oyaviy bo'shliq yohud parokandalik oqibatida kelib chiqadi. Uning yuzaga kelishiga tashqaridan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirlar ham sabab bo'ladi. Tarixda G'.q. asoratga tushgan, mustamlakaga aylantirilgan xalqlarni o'z madaniyati, tili va dinidan uzoqlashishga, ularni unutishga olib kelgan. Vaqt o'tishi b-n shu xalqning ilg'or vakillari, fidoyi farzandlari, hatto o'z jonini qurban qilib bo'lsa-da, ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan, qaramlikning har qanday urinishiga qarshi ommani qo'zg'atgan.

G'oyaviy- mafkuraviy qarash- (g'oya-ar. Ijtimoiy fikr+ mafkura-ar. fikrlar majmui)- muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari orzu-istak va maqsad-muddaolarini ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlар ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Insoniyat tarixida xilma-xil g'. m. q.lar bo'lgan.

G'oyaviy mutaassiblik - to'g'ri deb hisoblangan muayyan fikr, g'oya, aqida va shu yo'ldan boshqa hamma narsani noto'g'ri, yolg'on deb bilishga, ko'r-ko'rona inkor etishga asoslangan qarashlar va amaliyot. G'.m. turli yo'nalish va e'tiqoddagi kishilarga xos bo'lsa-da, ulardagi umumiylig o'zga g'oya va e'tiqodni yolg'on hisoblashga, o'z qarashlarini mutlaqlashtirishga, unga qo'shilmaydiganlarga qarshi faoliyat olib borishga, ularni yo'q qilishga qaratilgan harakatlarda yaqqol ko'rinadi.

O'rta asrlardagi inkvizitsiya, ba'zi G'arb mamlakatlaridagi neofashizm g'oyalari tarafdarlari harakatlari G'.m.ka misol bo'la oladi.

G'oyaviy parokandalik - jamiyat, xalq, ijtimoiy qatlamlarning o'z maqsadlarini aniq-ravshan belgilab olmagani, orzu-intilishlari va manfaatlarini ifoda etadigan mafkura yaratmagani sababli ijtimoiy ongda va ma'naviy hayotda yuzaga keladigan g'oyaviy boshboshdoqlik, beqarorlik. G'.p. odatda muayyan siyosiy tizim o'z hayotini tugatgan, bir tuzumdan boshqasiga o'tilayotgan, ijtimoiy siyosiy qutplashuv va ziddiyatlar kuchaygan, jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, har bir ijtimoiy-siyosiy kuch o'zining tor manfaatlari doirasida o'ralashib qolgan vaziyatlarda ro'y beradi. Bu holat jamiyatni yanada tarqoq qilishga, bir-biriga dushman taraflarga ajratib yuborishga olib keladi. Mamlakatda ichki ziddiyatlar kuchaygan, qatlam, toifa, milliy-etnik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshilik zo'raygan hollarda ham ana shunday hol ro'y beradi.

G'oyaviy savodsizlik – mafkuraviy jihatdan yetarli bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lмаган insonlarga xos bo'lган xususiyat. G'.s.ning asosini mustaqil fikrga, sobit e'tiqodga, mustahkam iroda va dunyoqarashga ega bo'lmaslik tashkil etadi. Bunday kishi jamiyatda o'z o'rniga, o'zining aniq hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lmaydi. Natijada u turli zararli g'oyalari, yot, begona mafkuralar ta'siriga juda oson tushib qoladi.

G'oyaviy tajovuz — muayyan bir jamiyat yoki millat, ijtimoiy qatlam yo guruuh ongi va ruhiyatiga tashqaridan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sir, begona va yot maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan g'oyaviy bosqinchilik. Tarixda g'oyaviy tajovuz harbiy istilo, siyosiy tazyiq va iqtisodiy iskanja choralarini b-n bog'liq holda olib borilgan. Undan bosqinchilikni oqlash, mustamlaka va qaram xalqlarni mafkuraviy asoratda saqlash maqsadida foydalanilgan. G'oyaviy tajovuzning muhim xususiyatlari — haqiqatni soxtalashtirish, tarixni odamlar xotirasidan o'chirish, umuminsoniy qadriyatlarni qadrsizlashdan iborat. G'.t. aldash va makr b-n ularni o'z ota-onalariga, jamiyatga qarshi qo'yish, xiyonat va sotqinlikni fidoyilik deb ko'rsatish shaklida ham namoyon bo'ladi.

G'oyaviy turg'unlik — muayyan mafkura tizimidagi takomillashish va yangilanish jarayonining to'xtab, mafkuraviy aqidalarning real hayot, amaliyotdan uzilib qolishi. Ma'lumki, har qanday mafkura muayyan ijtimoiy qatlam, millat, davlat, jamiyatning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan tizimdir. Jamiyat taraqqiy etar ekan, bu tizim ham takomillashib, yangilanib borishi lozim.

G'oyalar bozori — OAV fikr va konsepsiylar almashuvi sohasi sifatidagi ramziy nomlanishi, axboriy faoliyatni marketizatsiyalash (bozorlashtirish) tarafkashlari va qarshi chiquvchilarining turli talqinlariga sabab bo'lган atama.



G'oyani ishlab chiqish – iste'molchi uchun muhim bo'lgan tovar g'oyasini kengaytirilgan bayoni. Masalan, futbol ishqibozlari asosiy tomoshabinlarini tashkil qiluvchi "Gol" Rossiya teledasturida futbol bo'yicha jahon championatiga turistik safarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar reklamasi.

G'oyasizlik – biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning ongi va qalbida muayyan maqsad sari yetaklovchi fikrning yo'qligi. G'. odatda hali o'zligini anglab yetmagan, o'z manfaat va imkoniyatlarini ifoda eta olmaydigan, maqsad-muddaolari va hayotiy qadriyatlarini anglab yetmagan kishilar va toifalarda uchraydi. Hayotda yuksak g'oyasi, ezgu orzu-intilishlari bo'limgan odam faqat tabiiy ehtiyojlar doirasi b-n chegaralanib qoladi. G'.lik ma'naviyati tuban, imon-e'tiqodi sust, mafkurasi buzuq kimsalarni yuzaga keltiradi. O'z o'tmishi va nasl-nasabini bilmaslik, tarixiy xotirani unutish ham G'.ning bir ko'rinishidir. Bunday kimsalar o'z ota-onasiga qo'l ko'tarishi ham, o'z Vatanini sotishi ham mumkin.

Deviant texnologiyalar – o'z faoliyat usullariga qo'yilgan har qanday talab va andozalardan chetga chiqadigan texnologiyalar, qonunga va ahloqiy meyorlarga zid keladigan "qora" va "kulrang" texnologiyalar.

Diniy va daxriylik g'oyalari esa kishilarning ijtimoiy xodisa sifatida yuzaga kelgan davrlardan boshlab, shu kungacha saqlanib qolgan qarashlar majmuini, dinga xurfikrlilik ruhiyatida yondoshishni tashkil etadi. Shuni unutmaslik kerakki, inson tafakkuri orqali men bilmagan narsa va xodisa qolmadi desagina uning tafakkurida dinga o'rin qolmaydi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi – jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabati bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatlarni yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha. Bugungi dunyo muayyan yaxlitlikni tashkil etsa-da, undagi mintaqqa va davlatlar, millatlar va xalqlar o'z o'rniga ko'ra turli mavqega ega. Hozirgi davr – dunyoda g'oyaviy qarama-qarshilar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Shunday ekan, ularning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan mafkuraviy ta'sir usullari bo'lishi shubhasiz. Jahon siyosiy xaritasida ko'plab davlatlar mavjud, bo'lib ularda turli siyosiy kuchlar, partiyalar, dinlar, diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamoat nazorati – a) qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi; b) hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishi va ijob etilishi; v) qonun va boshqa qonun hujjatlarining tayyorlanish jarayoni; g) davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyati; d) davlatning kuch ishlaturuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchlik vakillari va jamoat tashkilotlarining nazorati.

Jamoatchilik fikri – ijtimoiy ongning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, kishilarning turmush hodisalari, siyosiy va ijodiy tashkilotlar va alohida bir shaxslarning faoliyati haqida ijobjiy yoki salbiy qarashlari majmui.

Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar esa millatlar va davlatlarning ijtimoiy va siyosiy sohada qo‘lga kiritgan, shu paytgacha hayot amaliyotida o‘zini oqlagan ijtimoiy va siyosiy qarashlar majmuidir.

Ilmiy g‘oyalar – fan va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi tufayli olib borilgan kuzatishlar, eksperimentlar, tahlillar, inson bilimi, tafakkuri salohiyatida yaratilgan, kashf etilgan g‘oyalardir.

Instrumental texnologiyalar – yuzaki qaraganda faoliyatni mukammallashtirishga xizmat qilayotgandek ko‘rinadigan, aslida esa mutlaqo boshqa maqsadlarni yashirish uchun foydalaniladigan texnologiyalar.

Istiqlol mafkurasi — millat va davlatning mustaqil rivojlanashini ta’minlashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. U istiyedot mafkurasi va amaliyotiga qarshi, ozadlikka intilish zarurati tufayli paydo bo‘ladi. Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu ideallarini, oliyjanob maqsad – muddaolarini o‘zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O‘zbekistonning har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro‘yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oyani anglash b-n bog‘liq holda kechadi. Vatan manfaati har bir fuqaro manfaatlari b-n uzviy bog‘langan. Zero, Vatanning obodligi xalqning farovonligiga bog‘liq.

Ko‘lankali texnologiyalar – siyosiy jarayonni belgilab bersa-da, kam darajada texnologiyalashtirilgan va shu boisdan, ko‘proq faoliyatning tasodifiy, noyob, kamdan-kam uchraydigan usul va vositalarini qamrab oladigan texnologiyalar.

Qadriyatlar – narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ahamiyatini ifodalash uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarni G‘arbda “Aksiologiya” fani o‘rganadi. Aksiologiyani qadriyatlar to‘g‘risidagi qadriyatlar to‘g‘risidagi qan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri “qadriyatshunoslik” deb atash ham mumkin. Qadriyatlar axloqiy qoida va meyorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o‘zida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, o‘zaro yordam,adolatlilik, haqiqatgo‘ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, mas’uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo‘ladi. Qadriyat o‘z tabiatiga ko‘ra, ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida u o‘zgaradi va

takomillashadi. Shuning uchun qadriyat to‘g‘risidagi ta’limotlar ham takomillashib, rivojlanib boradi. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy va ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy; jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqalar.

Kontinental-hududiy darajadagi texnologiyalar – alohida davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning muayyan hududdagi (Yevropa, Yaqin Sharq kabi) muammolarni hal qilish yo‘lidagi say-harakatlarini qamrab oladigan texnologiyalar.

Lokal texnologiyalar – siyosiy jarayonning qaysidir qisminigina samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan texnologiyalar.

Mafkura – arabchada fikrlar majmui, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyat manfaatlari, orzu-istik va maqsad-muddaolari ifodalangan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkuralar muayyan diniy-falsafiy ta’limot asosida yaratiladi, ma’lum ilmiy qarash va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o‘z mohiyatiga va ta’sir kuchiga ko‘ra jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi tomonlarga bo‘lib yuborishi, davlatning jahondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor qilishi mumkin. Masalan, sobiq ittifoq davrida mafkuraga umuminsoniy qarash shakllanmagan, bunga yo‘l qo‘yilmagan. Unga to‘g‘ri va xolisona baho berish imkoniyati mustaqillik tufayli amalga oshdi.

Mafkura evolyusiyasi — muayyan maqsad va manfaatlarni ifoda etuvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimning vujudga kelishi, rivojlanishi va intihoga yetishi jarayonini ifodalovchi tushuncha. Har qanday mafkura jamiyatda yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlari va maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi yangi g‘oyaviy tizim sifatida vujudga keladi. Mazkur millat yoki harakatning yetakchi kuchlari, siyosiy arboblari, ideologlari ijtimoiy ongdagi orzu-intilish va ruhiyatdagi his-tuyg‘ularni bir tizimga soladigan ta’limot va dasturlar yaratadilar. G‘oyaviy tarbiya vositalari va faollari orqali bu g‘oyalar ongga va ruhiyatga singdiriladi. Bu g‘oyalar ko‘pchilik ongini egallagach, ularni harakatga keltirib, maqsad sari yetaklaydigan kuchga aylanadi. Mafkura, vaqt kelib, o‘z sohiblari tarix maydonidan tushsalar ham, *mafkuraviy meros* sifatida yangi davrda ham o‘z ta’sirini saqlab qolishi mumkin. Bu nafaqat ezgulikka xizmat qiladigan, balki o‘z mohiyatiga ko‘ra g‘ayriinsoniy bo‘lgan mafkura shakllariga ham tegishlidir.

Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri; mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmagani, doimiy bo‘limgani, muqim bo‘limgani kabi ma’nolarni anglatadi. Bu tushuncha gohida ijtimoiy hayotda mafkuralarning almashib turishi jarayonini izohlash uchun ham qo‘llaniladi.

Mafkuraviy beqarorlik, asosan, muayyan bir hududda davlat tizimi bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan olganda, M.b.ni — muayyan tarixiy sharoitda yuzaga keladigan g'oyaviy o'zgaruvchan holat deb ham atash mumkin. Jamiyatning yangilanish bosqichlarida odatda eski tizim, eski turmush tarzi bilan birgalikda o'sha tizim mafkurasi ham yuz tuban bo'ladi, bunday hol ma'lum darajada mafkuraviy bo'shliqni yuzaga keltiradi.

Mafkuraviy bo'shliq — jamiyat, davlat va mehnat jamoalarida vujudga kelgan vaziyat, ijtimoiy muhit tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarning zaiflashib qolishi. Bunday sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatida turli mish-mishlar, safsatalar ustuvorlik qila boshlaydi. Kishilar xatti-harakatini bo'shanglik, loqaydlik, befarqlik egallab oladi. Ruhiyatda hech narsaga aralashmaslik kayfiyati ustun keladi. Qayerda shunday holat yuz bersa, o'sha yerda M.b. hukmron bo'ladi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallahuvi — g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

Mafkuraviy plyuralizm (lot. pluraliq – xilma-xillik, rang-baranglik) – ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydigan tushuncha. Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni M.p. hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikriy kurash mafkuralarning ma'no va mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi. M.p. ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarning manfaatlarini umumiylar tarzda ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadi. U muqarrar suratda ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Siyosiy partiyalar esa o'zları mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarning manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi.



VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. —Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz|| mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: —O'zbekiston||, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovil mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: —O'zbekiston||, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: —O'zbekiston||. – 2017.– 102b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: —O'zbekiston||, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.:—O'zbekiston||, 2018.–80b.

6. Mirziyoyev Sh.M. —Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidirl mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi// —Xalq so'zil gazetasi 2018 yil 8 dekabr.

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: —Ma'naviyatl||, 2008.–176 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.

2. —2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi|. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3.—Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidal|. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldag'i PF-5106 sonli Farmoni.

4. —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidal|. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldag'i PQ 3160 sonli Qarori.

5.«Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son Farmoni.

6.«Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidai». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538 sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar (qo'llanma). – T.: Yangi asr avlodni, 2001.
2. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: Universitet, 2001.
3. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. –192 b.
4. Mamashokirov S. va boshqalar. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). –T.: 2004.
5. Milliy g'oya:asosiy tushuncha va tamoyillar (darslik). –T.: —Akademiyall, 2005.
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: Akademiya nashriyoti. 2007.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovation texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: —Iste'dodl jamg'armasi, 2008. –180 b.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovation texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: —Iste'dodl jamg'armasi, 2009. – 160 b.
9. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007. –120 bet.
10. Otamurodov Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizliklik. –T.: —O'zbekistonl, 2013.
11. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
12. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. —Ma'naviyat asoslari fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. — T.:TDPU, 2013.
13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU. 2014, 6,5 bet.

14. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'llim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T. RTM, 2017 .

IV. Xorij manbalari

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.
2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277.On-line since: 24th January, 1995.
3. Michael Freeden. Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)
4. The geopolitics reader .Edited by Gearóid Ó Tuathail, Simon Dalby and Paul Routledge. – London and New York. Routledge Taylor & Francis e- library, 2003.

V. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’llim vazirligi.
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’llim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’llim portalı ZiyoNET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.